

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI
JAHON SIYOSATI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

Azimov Toxir Yuldosh o‘g‘li

ISROIL ICHKI SIYOSATI RIVOJLANISHINING
ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5310100 – Siyosatshunoslik

Ilmiy rahbar:
s.f.n. M. Muhammadsidiqov

Toshkent- 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. HOZIRGI ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLARDA ICHKI SIYOSATNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	10
1.1. Hozirgi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda davlatlar ichki siyosatining mazmun va mohiyati.....	10
1.2. Globallashuv sharoitida davlatlar ichki siyosatini yuritishning yangicha uslub va nazariyalari.....	16
2-BOB. ISROIL ICHKI SIYOSATI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	22
2.1. Zamonaviy bosqichda Isroil ichki siyosatini yuritishining asosiy jihatlari ..	22
2.2. Isroil ichki siyosatini shakllanishida siyosiy partiyalarning o‘rni.....	30
2.3. Isroil ichki siyosatini rivojlanishida Falastin omilining ahamiyati.....	37
XULOSA.....	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	.55

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yaqin Sharq mintaqasi oxirgi yarim asrlik tarixda muhim harbiy-siyosiy va mojaroli hudud bo‘lib kelmoqda. Oxirgi yillarda dunyoda sodir bo‘layotgan turli siyosiy o‘zgarishlar, davlatlarning Yaqin Sharqda bo‘layotgan voqealarga nisbatan bildirayotgan mavqelari va bu yerdagi turli hil to‘qnashuv va urushlar nafaqat mintaqa xavfsizligi, balki, global xavfsizlikka o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Yaqin Sharqning mintaqaviy xavfsizligi Arab-Isroil muommolariga boribgina taqalmaydi. Mintaqaning ko‘plab davlatlari boshqa muammo va ziddiyatlarga aralashib ketgan. Shunga qaramasdan Falastin masalasi Arab- Isroil muammolarining asosini tashkil etgan, u o‘nlab yillar davomida Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligi masalalarining xalqaro hamjamiyat markazidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolaveradi. 50 yildan ortiq vaqt davomida Arab-Isroil muammolarining davom etishi, Falastinning mavjudligi bu muammoni hal etish zarurligini ta’kidlaydi. Yaqin Sharqdagi bu muammo xalqaro hamjamiyat ishtirokisiz hal bo‘lmaydi. Biroq, undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish, Arab-Isroil ziddiyatlarini xali-beri oxiriga yetkazmaydi. Mintaqadagi vaziyatga ob’ektiv, tarixiy manbalarga, inson huquqlarini himoya qilgan holda, umumjahon talablarga amal qilgan holda yondashish kerak. Arab dunyosi Isroil o‘zlarining umumiy dushmani, agressiv siyosatchi, ekspansionist, mintaqada gegemoniyaga intilayotgan, tinchlik muzokaralaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanayotganini ta’kidlaydi. Uning bosib olgan yerlaridan chiqib ketmasdan turib, tinchlik muzokaralari oxirigacha hal bo‘lmasligini bildiradilar¹.

Ma’lum bir mintaqada ikki davlat o‘rtasida tuqnashuvi yoki mojaro kelib chiqishi, agar uning oldini olinmasa, uning ko‘lami kengayib global darajaga yetishi mumkin. Bunday holatda mintaqa xavfsizligini ta’minlash qiyinlashadi va turli ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yaqin Sharq mintaqasidagi Arab-

¹ Курбанов А.К. Фаластин муаммоси ва унга араб дунёсининг муносабати. Автореф дисс... тарих. фан номзод. – Т.: ЎзР.ФА, 2010. – Б. 8.

Isroil urushlari tarixini kuzatganda ham bu urushlar jahon urushiga aylanib ketish xavflari paydo bo'lganini kuzatamiz. Hamma urushlarda bo'lgani kabi bu mojarolarda ham asosan begunoh tinch aholi vakillari zarar ko'rganlar, ularning ko'plari qochoqlarga aylanishi oqibatida, keyinchalik ham ular bilan bog'liq ko'plab siyosiy mojarolar kelib chiqqan¹.

Xalqaro munosabatlarda muhim geostrategik o'rin egallaydigan Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikning ta'minlanishi jahon miqiyosida ham tinchlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Chunki geosiyosiy nuqtai nazaridan Yaqin Sharq mintaqasi ko'plab davlatlarning manfaatlari tutashgan mintaqa hisoblanadi. U yerda sodir bo'layotgan so'nggi paytdagi voqea-hodisalar esa hech bir davlatni, hoh u boshqa mintaqada bo'lsin befarq qoldirmaydi.

I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida mintaqaviy tahdidlar to'g'risida shunday deydi: "Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning belgilangan doiralardagi qarama-qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. U muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarama-qarshilikdir. Agar masalaga shu nuqtai-nazardan qaraladigan bo'lsa, bu tahdidning haqiqatan mavjudligi yaqol ayon bo'ladi. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi shundan dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegara doirasida qolib keta olmaydi"².

I.A.Karimovning Vatanimiz mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlab so'zlagan nutqida davlat strategiyasining har bir mamlakat uchun qanchalik muhim ekanligi to'g'risida eslatib o'tiladi: "O'z-o'zidan ayonki, O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash, o'z xalqining tinchligi va farovonligini ta'minlashga intilayotgan boshqa davlatlar qatori hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan murakkab davr o'rtaga qo'yayotgan talab va savollarga to'liq javob

¹ Захарченко А.Н. Израиль и Франция: современные проблемы отношений / <http://www.iimes.ru/rus/stat/2007htm>.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI- аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. —Т.:Ўзбекистон, 1997.

beradigan, aniq va ravshan, har tomonlama puxta o'ylangan strategiya va harakat dasturiga ega bo'lishi zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda"¹.

Darhaqiqat, davlat strategiyasini zamonning talabiga asosan ishlab chiqish va uni ta'minlashdagi harakatlarni bir yo'nalishga solgan holda olib borish har bir mustaqil, suveren mamlakat uchun juda ahamiyatlidir.

Isroil davlati xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida o'z rivojlanish va taraqqiyot strategiyasiga ega. Isroil vujudga kelishi bilanoq, Yaqin Sharq mintaqasi dunyo siyosatining qaynoq nuqtalaridan biriga aylanib qoldi. O'z tarixiy xotiralari natijasida Falastin hududlariga ko'chib borgan yahudiy xalqi albatta, arablar orasida hayrixohlik va hursandchilik bilan kutib olinmadi. Shunday bir vaziyatda, o'z strategiyasini mustaqilligini saqlab qolish uchun yo'naltirgan Isroil davlati ko'plab omillar evaziga rivojlanish va qiyinchiliklarni yengib chiqishda muvaffaqiyat qozonishda davom yetdi.

Isroil davlati strategiyasida ichki siyosati va tashqi siyosiy omillarning evolyusiyasini o'rganish xalqaro munosabatlardagi har bir tadqiqotchi va mutaxassis uchun o'zining ahamiyatli taraflari bilan muhim deb o'ylash mumkin. Isroil davlatining jahon siyosiy sahnasida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida tutgan o'rni bu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Isroil tajribasini o'rganish, uning ichki siyosatida bosgan qadamlarini tahlil qilish va undan chiqarilgan xulosalar hozirgi davrda ko'plab mamlakatlarning ichki siyosati, siyosiy jarayonlarni o'rganishda hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi va ma'lum davlatlarning tutadigan o'rinlarini tushunish uchun yordam beradi.

Aynan davlatlar ichki siyosatining xususiyatlarini o'rganish esa, mutaxassis uchun juda ahamiyatli bo'lgan yaqin kelajakda bo'lajak voqealarni oldindan aytib berish qobiliyatini rivojlanishida o'z yordamini beradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг мустақилликнинг 16 йиллигига бағишлаб сўзлаган нутқи. // <http://www.press-service.uz>

Yosh mustaqil davlatimiz uchun Isroil bosib o'tgan yo'llarni o'rganish va uning tajribasini ko'rib chiqqan holda bu davlat bilan ikki tomonlama aloqalarimizni rivojlantirish katta ahamiyat kasb yetadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mavzuning o'rganilganlik darajasini belgilab olish uchun bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlarni guruhlariga bo'lgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuni o'rganishda bir qancha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ishlardan, xorijiy va mahalliy adabiyotlardan, shuningdek ba'zi internet manbalardan keng foydalanildi.

Ushbu muammoni o'rganishda avvalo, O'zbekiston Prezidentining bir qator asarlaridan, shuningdek turli tashkilotlar chop etgan xujjatlar va hisobotlardan, davlatlarning tashqi siyosiy konsepsiya va shunga doir xujjatlardan foydalanildi.

Mamlakatimizda siyosiy tizim va siyosiy jarayonlarga oid ilmiy ishlar bir qancha olimlar jumladan, Sh.A.Yovqochev, Z.I. Munavvarov, R.Z.Jumaev, S.M.G'ofurov, A.A.Haydarov va boshqalar¹ tomonidan olib borildi. O'zbekistonlik olimlar tomonidan bugungi kunda arab mintaqasi davlatlarini, shuningdek, Yaqin Sharq davlatlari ichki va tashqi siyosatiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Jumladan, M.Muhammadsidiqov, N.A. Abdullaev, N.Ibrohimov, S.G'ofurov, S.Inog'omov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar²

¹ Каранг: Ёвқочев Ш.А. Миср Араб Республикасида: давлат ва диний институтлар. – Т., 2007; Ёвқочев Ш.А. Влияние ислама на формирование современной политической системы АРЕ. Автор. дис. ...докт. полит. наук. – Т., 2009; Исламский фактор в политической системе современного Египта. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. –212 с.; Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: Фан, 1996; Ғофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганов Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. – Т., 2005; “Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт”. Муаллифлар жамоаси Р.Ф. Фармонов, Н.Ў. Тўлаганов ва б. – Т., 2008; Мунавваров З.И., Хасанов А. Ислом: Ханафийлик ва ваххобийлик. – Т.: Мовароуннахр, 1998. –155 б.; Мунавваров З.И. Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях 20 века: автореф. дисс. ... док. полит. наук. – Т., 1997., Абдисатторов А.А. Форс кўрфази араб давлатлари ташки сиёсатида “ислом омили”нинг сиёсий таҳлили. С.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. -Т.: ТошДШИ, 2005.; Мавлянова С.Н. Многопартийность – несущая конструкция политического плюрализма в Аравской Республике Египет и Республике Узбекистан. Автореф. дисс. ...канд.пол.наук. –Т.: ТашГИВ, 2004.; Азимов А. Саудовская Аравия и её внутренняя политика // Маяк Востока, 2000. № 6.; Азимов К.С. Государство Иордании в современной политической системе на Ближнем Востоке. // Азия и Африка сегодня, 2003. №8 С.31-35.

² Каранг: Мунавваров З.И. Арабистон ярим ороли мамлакатлари. – Т., 1994, Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях XX века. Дисс... док. полит. наук. – Т., 1997; Ғофуров С.М. Форс кўрфази араб давлатлари ва Ўзбекистон Республикасининг минтақавий ва умумжаҳон хавфсизлигини таъминлашдаги мавқеи. Дисс.. сиёсий. фанлар док. – Т., 2002; Иноғомов С.

tomonidan hozirgi zamon siyosatshunosligida muhim o‘rin tutadigan ilmiy ishlar olib borilgan. Isroil davlati strategiyasini va tashqi siyosatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga ingliz tilida yozilgan adabiyotlarni kiritisa bo‘ladi. Bu tilda nashrdan chiqqan ishlar orasida J.Spanierning Isroilning ilk vujudga kelgan yillaridan beri amalga oshirayotgan tashqi siyosati haqidagi,¹ P.Grousning "O‘zgarayotgan Isroil" nomli va Y.Beylinning Isroilning siyosiy tarixiga bag‘ishlangan kitob larini alohida ko‘rsatib o‘tsa bo‘ladi. Shuningdek, Isroilning birinchi bosh vaziri D.Ben-Gurionning o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda yozilgan kitobi ham e’tiborga molik.

Ikkinchi guruhga rus tilida chop etilgan ishlarni kiritildi. Ularning orasida Ye.Satanovskiyning "Isroil zamonaviy jahon siyosatida" nomli kitobi², A.Kornilovning Isroilda tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni haqidagi ishini, Ye.Usovaning Isroil davlatining milliy xavfsizlik konsepsiyasining rivojlanishi borasidagi kitobini va shuningdek, Sh.Peresning "Yangi Yaqin Sharq" nomli kitobini alohida ajratib ko‘rsatsa bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va Isroil davlati o‘rtasidagi hamkorlik aloqalariga bag‘ishlangan maqolalarning mavjudligini ham aytib o‘tish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi veb-saytida³ keltirilgan rasmiy ma’lumotlardan tashqari, Isroilning yurtimizdagi elchixonasining internet sahifasida⁴ ham foydali xabar va manbalarni topsa bo‘ladi. A.M.Tronov va

Саудия Арабистони Подшоҳлиги. – Т., 1998; Хайдаров А.А. Проблемы ближневосточного урегулирования. – Т., 2001; Муҳаммадсидиқов М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари: Сиёс.ф.н. олиш учун дисс.автореферати. – Т., 2005; Абдуллаев Н.А. Региональная политика Сирийской Арабской Республики в свете ближневосточного урегулирования. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук. – Т.: ТашГИВ, 2000.,

¹ Spanier, J. -Israeli Foreign Policy since World War II. New York, 1992., Grose, Peter. -A Changing Israel. //Vintage Books. New York. 1998., Beilin, Yossi. -Israel. A Concise Political History. //Weidenfeld and Nicolson, London, 2001., Ben-Gurion, David. -Israel: A Personal History. //Funk and Wagnalls. New York. 1971.

² Сатановский, Е.Я. -Израиль в современной мировой политике. //ИииБВ. Москва. 2001., Корнилов, А.А. - Между войной и миром. О процессе принятия внешнеполитических решений в Государстве Израиль (1948–1993 гг.). Нижний Новгород, 1994., Усова, Е.Ю. -Развитие израильской концепции национальной безопасности: новые проблемы и тенденции на рубеже веков. //ИииБВ. Москва. 2001, Перес Ш. Новый Ближний Восток. //Издательство "Прогресс". Москва 1994.

³ O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi internet sayti: <http://www.mfa.uz>

⁴ Isroil Davlatining O‘zbekistondagi elchixonasi internet sayti: <http://www.tashkent.mfa.gov.il>

A.K.Lukoyanovlarning "O'zbek-isroil munosabatlari haqida" nomli maqolalari¹ va bundan tashqari, A.I.Novikovning "Isroilning sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari bilan aloqalari" nomli maqolasida ham kerakli ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti etib Isroil jamiyati va siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ichki siyosatining shakllanish jarayoni tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib Isroil ichki siyosatini shakllantiruvchi siyosiy va ijtimoiy institutlar va jarayonlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Yaqin Sharq davlatlari, xususan Isroilda davlat boshqaruv tizimining shakllanish jarayoni hamda uning bugungi kunga kelib qay darajada ekanligini xolisona o'rganish va asosli ravishda yoritish bo'lib, mamlakat ichidagi diniy konfessiyalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatish va O'zbekistonda siyosiy tizimini modernizatsiya qilishda Isroil davlat boshqaruv tizimi tajribasining ahamiyatini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, vazifalar quyidagilarni tashkil etadi:

–Zamonaviy ijtimoiy - siyosiy jarayonlarda davlatlarning ichki siyosati mazmun va mohiyatini o'rganish;

–Hozirgi davrda Yaqin Sharq davlatlarining ichki siyosatini yuritishning yangicha tamoyillarini tahlil etish;

–Zamonaviy bosqichda Isroil ichki siyosatini yuritishning asosiy jihatlarini ochib berish;

–Isroil ichki siyosatini shakllanishi va rivojlanishida geosiyosiy jarayonlarning ta'sirini ko'rsatib o'tish;

–Bugungi kunda Isroil siyosiy partiyalari faoliyatining xususiyatlarini tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagi erishilgan natijalar bilan izohlanadi:

¹ Тронов, А.М., Лукоянов, А.К. -Об израильско-узбекских отношениях. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2006/26-04-06.htm> Новиков, А.И. -Отношения Израиля со странами бывшего СССР. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2005/25-01-05.htm>

- Siyosiy tizimda hokimiyat boshqaruv strukturasi siyosiy tahlil qilindi;
- Yaqin Sharq davlatlarida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarish va yangilanishlarni qiyosiy tahlil etildi;
- Yaqin Sharq mintaqasiga tahdidlar va xavfsizlikni ta'minlash muammolari, hamda mintaqaviy hamkorlikdagi o'zaro munosabatlari ochib berildi;
- Yaqin Sharq davlatlari siyosiy tizimida siyosiy partiyalar faoliyati tahlil qilindi. Shuningdek, jamiyat siyosiy tizimida diniy partiya va harakatlarning o'rni, hamda Yaqin Sharq davlatlarining jamiyatni demokratiyalashtirish masalasidagi hatti-harakatlari tadqiq etildi;
- Isroilda hokimiyat bo'linish tamoyillarining o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Unda boshqaruvi tizimining ahamiyati tarixiy va zamonaviy jihatdan tahlil qilindi;
- Isroilda parlamentini shakllantirishda siyosiy partiyalarning ta'siri tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asoslarini Prezident I.A.Karimovning tashqi siyosat tamoyillari, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan asarlari va nutqlarida bayon etilgan fikrlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari dissertatsiyaning nazariy-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va xorijlik olimlarning siyosiy tizim shakllari, siyosiy tizimda boshqaruv turlari hamda arab davlatlari, jumladan, Yaqin Sharq davlatlarining siyosiy tizimi va boshqaruv shakllariga bag'ishlangan ilmiy ishlar tadqiqotning nazariy manbasini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. BMI kirish, beshta paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. HOZIRGI ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLARDA ICHKI SIYOSATNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1. Hozirgi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda davlatlar ichki siyosatining mazmun va mohiyati

Keyingi yillarda global siyosiy – kuch munosabatlarida chuqur siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar shakllanayotgan yangi xalqaro munosabatlar tizimi xususiyatlarini belgilab berdi. Yangi xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi xalqaro munosabatlarda qat’iy tanazzul va jahonning geostrategik mintaqalarida strategik noaniqlik hamda jahon iqtisodiyotida barqarorsizlikning mavjudligi bilan izohlanadi. Yuzaga kelgan mazkur voqeliklarga turli olimlar turlicha baho berishmoqda: kimdir tarixning poyoniga yetganligi haqida, kimdir kambag‘al va boy mamlakatlar o‘rtasida muvaqqat ikki qutbli mojarolarning yuzaga kelishi haqida, yana kimdir an’anaviy kuch ishlatish siyosatiga qaytish haqida, boshqalar sivilizatsiyalarning global to‘qnashuvi haqida, etnik mojarolarning ko‘payishi va rivojlanishi haqida bashorat qilishmoqda.

Zamonaviy dunyoning turli mintaqalarida ba’zan integratsiya, ba’zan esa integratsiyaga zid jarayonlar yuz bermoqda. Turli tashkilot va birlashmalar vujudga kelmoqda, turfa sifat va o‘lchamli dasturlar amalga oshirilmoqda. XXI asr boshida yuzaga kelgan yangi tarixiy sharoit Markaziy Osiyo davlatlari oldiga o‘zaro hamjihatlik va birodarlikka asoslangan integrasion makonni barpo etishni taqozo qiladi.

XX asr so‘nggida yuz bergan jahondagi siyosiy o‘zgarishlar xalqaro munosabatlar tizimi mohiyatini o‘tgan asrga nisbatan tubdan o‘zgartirdi.

Dunyo tartibotining ikki qutblidan ko‘p qutblilikka o‘zgarishi, siyosiy - ijtimoiy g‘oyalar tizimida kechayotgan o‘zgarishlar va turli xil siyosiy konsepsiyalarning mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarning o‘zgarishi xalqaro munosabatlar tizimidagi mavjud siyosiy-g‘oyaviy yo‘nalishlar ahamiyatining oshishiga olib keldi. Xususan, murakkab ilmiy muammo sifatida u yoki bu milliy ilmiy maktablar tomonidan avval yetarli darajada aniq o‘rganilmagan nazariyalarning bir-biri bilan taqqoslanishi kuzatildi.

O‘tgan asrning oxirgi o‘n yilliklarigacha xalqaro munosabatlar tizimidagi mavjud oqimlar: realizm, marksizm, liberalizm va boshqalar ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lib kelgan. 90-yillardan keyin esa konservatizmga qiziqish ortdi. Ya’ni, konservativ g‘oyalarning yangi dunyo tartibotidagi o‘rni o‘sib, ma’lum davlatlar tashqi siyosiy strategiyalari ishlab chiqilishida konservativ g‘oya tarafdorlari ta’siri sezilarli ortishiga olib keldi.

Davlatlarning tashqi siyosati va uning amal qilinishiga ichki va tashqi omillar ta’sir etib turadi. Ichki omillar obektiv va subektiv omillardan tashkil topadi. Ob’ektiv omillarga mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar, subektiv omillarga esa, mamlakatning siyosiy hayotida faoliyat ko‘rsatuvchi siyosatning turli xildagi sub’ektlari kiradi. Bu omillar tashqi siyosatga ta’sir etishi bilan birga uning zarurligini ham taqozo etadi. Binobarin, agar davlatlarning tashqi siyosati amalda bo‘lmasa, mazkur omillarning harakati ham bir tomonlama yo‘nalishga ega bo‘lib qoladi¹.

Umumbashariy muammolarni siyosiy jihatdan hal etish ehtiyojlari ham davlatlar tashqi siyosatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Garchi davlatlarning umumbashariy muammolarni hal etishga munosabati ularning ichki siyosati orqali ishlab chiqilsada uning amalga oshirilishi tashqi siyosatga bog‘liq bo‘ladi. Chunki davlatlar o‘zlarining tashqi siyosati orqali umumbashariy muammolarni hal etishda o‘z hissalarini boshqa davlatlar bilan hamjihatlikda aniqlab oladilar.

¹ Гафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 225.

Tashqi siyosat ham ichki siyosat singari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari uning mohiyati va mazmunidan kelib chiqadi hamda uni ichki siyosatdan farq qilish imkoniyatini beradi. Garchi siyosatning bu ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da ular o'zining jamiyat hayotiga qiladigan ta'siri, shart-sharoitlari, amalga oshirish usullari bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, mamlakat ichida va xalqaro maydonda ro'y beradigan yangidan-yangi siyosiy voqea-xodisalarga bildiriladigan munosabat xamisha bir xilda bo'lib qolmaydi. Garchi bu munosabat davlatlar tashqi siyosatining butunlay o'zgarib ketishiga olib ketmasa-da ayni paytda bu siyosatga ma'lum darajada ta'sir etib, uning yangi vaziyat talablariga mos ravishda o'zgarib turishiga sabab buo'ladi.

Tashqi siyosiy ham ichki siyosat singari barqarorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Barqarorlik, bir tomondan, tashqi siyosat vaziyatga, ikkinchi tomondan esa, siyosiy hokimiyatlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Buning ma'nosi shundaki xalqaro munosabatlar va ularga ta'sir etib turuvchi davlat hokimiyatlari faoliyatidagi samarali natijalar tashqi siyosatga barqarorlik ruhini baxsh etadi. Siyosiy vaziyat kanchalik tez o'zgarib turishiga qaramay tashqi siyosatning umumiy yo'nalishi uzoq yillar davomida keskin o'zgarishlarga uchramasligi mumkin. Shunga ko'ra tashqi siyosat ko'pchilik davlatlar faoliyatining barqaror davom etishini bildiradi.

Hozirgi davrda tashqi siyosatni mafkuradan xoli qilishning zarurligi va ahamiyati jahondagi ko'pchilik davlatlar tomonidan etirof etilmoqda va buning uchun amaliy harakatlar qilinmoqda. Bunday harakatlar davlatlar tashqi siyosatining yo'nalishlaridan biri sifatida davlatlararo munosabatlarning rivojida muhim ahamiyati kasb etmoqda.

G'oyaviy muxoliflik barcha zamonlarda ham davlatlar o'rtasidagi dushmanlik munosabatlarining keskinlashishiga sabab bo'lib kelgan. G'oyaviy muxoliflikka asoslangan davlat siyosati hech qachon samarali natijaga olib kelmagan. Aksincha, bunday siyosat ayrim hollarda dunyoni halokat yoqasiga olib

kelgan. Shuning uchun ham g'oyaviy kurashdan voz kechish hozirgi kunda davlatlar tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib qolmoqda. G'oyaviy kurashning zararli oqibatlarini O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov quyidagicha ta'riflab ko'rsatadi: "G'oyaviy muxoliflik o'tmishda davlatlararo munosabatlarga soya solib, davlatlarning bir-biriga qarshi ikki guruhga bo'linishiga sabab bo'ldi. Dunyoni halokat yoqasiga olib keldi. Bunday kelishmovchiliklar bugun ham davlatlararo ixtiloflarni kuch ishlatish yo'li bilan hal qilishga, begunoh odamlarning qurbon bo'lishiga, butun-butun xalqlarning fojiasiga sabab bulayotir¹".

Tadqiqotchi olim R.Aronnning davomchisi R.Bosk, "Dunyo sotsiologiyasi" degan asarida davlat salohiyatini o'z maqsadlariga erishish uchun qo'llanishi zarur bo'lgan resurslar majmuida deb ko'rsatadi. Bu faqatgina davlat salohiyatini ifodalab qolmay, balki tashqi siyosatning shakllanish asoslari hamdir. Shunga ko'ra davlat salohiyati ikki – fizik (jismoniy) va ma'naviy (ruhiy) omildan iborat zahiralar majmui sifatida izohlanadi.

Fizik omil quyidagi elementlardan iborat:

1. Hudud (geografik xolat, uning afzalliklari va ustunliklari);
2. Aholi (demografik qudrati);
3. Iqtisodiyotning ko'rinishlari: a) iqtisodiy resurslar, b) sanoat va qishloq xo'jaligi, s) harbiy qudrat.

Siyosatshunos olim S.Jo'raev fikri bilan izohlaganda, albatta, biz "milliy manfaatlar" deganimizda talab, ehtiyojni tushunamiz, ular qoniqtirilmas ekan, millat va davlatning mavjudligi muammoli bo'lib qoladi. Shuni ham e'tirof etish lozimki, "milliy manfaatlar" – foyda va g'araz degani hamdir, ularsiz tashqi siyosiy, iqtisodiy strategiyalarni va jahon maydonida davlatning xulq-atvor

¹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2006. – Б. 105.

taktikasini qurib bo'lmaydi¹. Bu esa tashqi siyosiy faoliyatning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bundan tashqari bugungi kunda siyosiy nazariyalarda tashqi va ichki siyosatning o'zaro aloqadorligi dolzarb masalalar jumlasiga kiradi. Bu borada mavjud turli maktab vakillari o'z nazariyalarida ushbu masalani o'rganib chiqqanlar. Shuning uchun ham ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi hamda o'zaro ta'siri muammosi – siyosiy fanlarning murakkab munozarali muammolaridan biridir. Xalqaro – siyosiy fanlarning har bir yo'nalishi ushbu muammoni siyosatni harakatlantiruvchi kuchlari va manbalari asosidagi o'z shaxsiy tasavvurlaridan kelib chiqadi.

Masalan, siyosiy realizm tarafdorlari tashqi va ichki siyosat oxir oqibat kuch uchun kurashga olib keladigan yagona mazmunga ega bo'lsada, davlat faoliyatining prinsipial jihatdan farqli sohalarini qamrab oladi. tashqi siyosat ikki tarkibiy qisidan iborat milliy manfaatlar bilan belgilanadi: birinchisi, tirik qolish imperativi, ikkinchisi, bu manfaatlarning vaqt va makondagi aniq shakli. Ushbu shaklning belgilanishi tashqi dunyo bilan aloqalarda monopoliyaga ega davlatga taalluqli. milliy manfaatlar asosi doimiy xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun davlat hayotining ichki omillari realistlar tomonidan milliy manfaatlar tabiatiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega deb hisoblanmaydi.

Boshqa nazariy maktab va yo'nalishlar nuqtai nazariga ko'ra, ichki va tashqi siyosatshunchalik bir-biri bilan bog'liq emas, ularning aloqalari determinativdir. Ular determinatsiyaning ikki versiyasi mavjud:

1. Ortodoksal marksizm nuqtai nazariga ko'ra, tashqi siyosat – ichki siyosiy tizimning sinfiy mohiyati in'ikosi (aksi) bo'lib, bu mohiyatni ifodalovchi iqtisodiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi.

2. Geosiyosiy krnsepsiya tarafdorlari, “Boy shimol” va “Kambag'al janub” nazariyalari shuningdek, bog'liqlikning neomarkistik nazariyasi, “jahon markazi”, “jahon perefereyasi” va boshqa qarashlarga ko'ra tashqi siyosat majmuasi tashqi

¹ Жўраев С. Замоновий халқаро умносабатлар. – Т.: Академия, 2007. – Б. 72-74.

majburlovchi kuchlardir. Gap “markaz” va “periferiya” o‘rtasidagi tashqi siyosiy kurashning asosiy maydoni bo‘lgan nosimmetrik o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari mavjudligi to‘g‘risida bormoqda. Ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, u yoki bu davlatlar doirasida partiyalar va harakatlar kurashi, ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, ulaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni bilan belgilanadi.

Neorealizm va strukturalizm vakillari uchun tashqi siyosat ichki siyosatning davomi hisoblanadi, xalqaro munosabatlar esa ichki ijtimoiy munosabatlar davomi sifatida qabul qilinadi.

Tashqi siyosatni tariflashdagi hal qiluvchi rolni xalqaro tizimning ichki dinamikasi o‘ynaydi.

Dunyoning o‘zaro bog‘liqligi konsepsiyasi vakillari mazkur mazkur masalaning tahlilida ichki va tashqi siyosat yagona asos – davlatga ega degan fikrga asoslanishadi. Davlat hokimiyati ikki monopoliyaga ega: o‘z hududida kuch ishlatish huquqi, qonuniy soliqlar olish huquqi. Lekin davlatning bu ikki monopoliyasini amalga oshirish davlatning harbiy axborot va boshqa ilg‘or texnologiyalari rivoji darajasiga bevosita aloqador bo‘ladi. Shu sababli ushbu konsepsiya tarafdorlari uchun ichki siyosatning tashqi siyosatga nisbatan birlamchiligi yoki aksi holati mutloq ahamiyatga ega emas; ularning fikriga ko‘ra, har ikki holat, avvalambor, texnologik xarakterdagi omillar bilan belgilanadi.

Transmilliy maktabi tarafdorlari yanada ilgari ketishadi. Ularning fikriga ko‘ra, ishtirokchilarning turli ekanligi o‘zaro ta’sir ko‘rinishlari va kanallari har xil ekanligi davlatni xalqaro mutloq markazidan siqib chiqaradi. Ko‘z o‘ngimizda siyosatni ichki va tashqiga bo‘lio‘ ahamiyatli bo‘lmagan global dunyo paydo bo‘ladi. 1969 yilda J.Rozenau tomonidan ilgari surilgan jamiyatning ichki hayoti va xalqaro munosabatlarning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi g‘oyalari bunday yondoshuvga katta ta’sir ko‘rsatdi.

U birinchilardan bo‘lib, dunyoning “ikkiga bo‘linishi”ga oid fikrlarni bayon etdi: zamonaviylik, bir tomondan, davlatlararo o‘zaro munosabatlar maydonlari mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu yerda klassik diplomatiya va strategiya

“qonunlari” amalda bajariladi; boshqa tomondan, “suverenitetdan tashqari” aktorlar, ya’ni nodavlat ishtirokchilar to’qnashadigan maydon mavjud. Bundan jahon siyosatining ikki qatlamligi kelib chiqadi: davlatlararo munosabatlar va nodavlat aktorlarning o’zaro aloqalari bir-biri bilan alohida nisbatan mustaqil va bir-biriga parallel ikki “post-xalqaro” siyosatni tashkil etadi¹.

1.2. Globallashuv sharoitida davlatlar ichki siyosatini yuritishning yangicha uslub va nazariyalari

Globallashuv ob’ektiv jarayon bo’lib, XX asrning so’nggi choragida vujudga kelgan va hozirda o’zining ko’tarilish davrida turibdi. “Globallashuv” tushunchasi eng avvalo shuni anglatadiki, bunda har doim ko’plab insonlar dunyo bo’ylab shaxsiy, kasbiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir-biriga bog’langan bo’ladi². Boshqacha aytganda, globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar aktorlari o’rtasidagi aloqalar keng miqiyosda bir biriga chambarchas bog’lanib ketmoqda. Negaki xalqaro munosabatlar tizimining asosiy tendensiyasi uning baynalminallashuvdir. Baynalminallashtirishning vositalari, uning harakatlartiruvchi kuchlari o’zgarmoqda. Hozirgi paytda u asosan iqtisodiy va ilmiy texnik omillar ta’siri ostida rivojlanmoqda³.

Globallashuv davrida yuzaga kelgan muammolar o’z milliy chegaralaridan chetga chiqib jahon miqiyosidagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi muammolarga aylanib bormoqda.

¹ Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. –Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. – Б.8-10.

² Wildfried Bredow. Neue Herausforderungen // Information zur politischen Bildung, 2006. №291. - S.5

³ Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия, 2007. - Б. 26.

Hozirgi davrda jahon siyosiy maydonida globallashuv jarayoni bilan birgalikda turli mintaqalar doirasida integratsiyalashuv tendensiyasi ketmoqda. Mintaqaviy integratsiya ikki xususiyatga ega: birinchidan, u globalizatsiyaning tayyorlov bosqichi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, globalizatsiyaning muqobili sifatida ham qaralmoqda¹. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mintaqaviy integratsiyaning kuchayishiga olib kelayotgan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarning turli mintaqalarga tahdid solish ehtimoli, ya'ni globallashuv samarasining notekis taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va baynalminal hamda umumjahon miqiyosda majoralar xavfini tug'dirdi². Bunday muammolarga qarshi yakka holda kurashish har qanday davlat uchun samarasiz hamda imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada ma'lum mintaqalar doirasida birlashish talab etiladi. Masalan: YeXHT, KHShT, ShHT aksilterror tuzilmasi, G'arbiy Yevropa ittifoqi, NATO, ANZYuS va boshqalar.

Ikkinchidan, mintaqalar doirasida iqtisodiy infratuzilmani tiklash va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni vujudga keltirish va bu boradagi muammolarni hal etish uchun birlashish. Bugungi kunda jahonning deyarli hamma mintaqalarida integratsiya jarayonlari yuz berib, qaysidir mintaqada u tez suratlar bilan, boshqasida sust suratlarda rivojlanishi bilan farqlanmoqda. Turli mintaqaviy tashkilotlarning shakllanishiga turtki bo'lmoqda: Shimoliy Amerikada NAFTA, Janubiy Amerikada MERKOSUR, Yevropada YeI, Afrikada Afrika Ittifoqi, Janubiy Osiyoda SAARK, Janubiy Sharqiy Osiyoda ASEAN, Markaziy Osiyoda MDH, ShHT, Yevrosiyo hamkorlik tashkiloti va boshqalar.

Shuning uchun ham 90-yillar o'rtalaridan integratsiya tendensiyasi xalqaro taraqqiyotning megatendensiyalaridan biri bo'lib qoldi³. Bu kelgusi dunyo

¹ Дробот Г.А. Современный мировой порядок и его перспективы в трудах Российских учёных // http://www.worldspol.socio.msu.ru/programmi/sovremennyy_mirovoj_porqdok_i_ego_perspektivy.doc

² Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия, 2007. – Б. 33.

³ Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов, 2 том. Под.ред. д.п.н. А.Д.Богатурова. М.:Культурная революция, 2006. – С. 551.

tartibotining shakllanishida muxim omillardan biriga aylanishi mumkin. Hozirda yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalqaro munosabatlar tizimi o’tish davrida. Bu davrda ko‘p qutblilikning boshqa o‘lchovi sifatida regionalizmni hisoblash mumkin¹. Turli mintaqalarda mintaqaviy yetakchi davlatlarning yuzaga kelishi va o‘z ta’siri ostida qolgan davlatlarni birlashtirishi, qo‘p qutbli dunyo tizimining yuzaga kelishiga imkon yaratishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, Yevropa Ittifoqining asosiy kuchi uning iqtisodiy ravnaqi ekanligi va bu boradagi yutuqlari, aniqrog‘i, “iqtisodiy taraqqiyotning Yevropa modeli” yangi jahon tartiboti shakllanishiga, uning kayfiyatiga ijobiy ta’sir etayotganligini alohida ta’kidlashmoqda². Bu esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining muhim xususiyati hisoblanadi.

“Sovuq urush” barham topganidan so‘ng jahon hamjamiyatida yuz berayotgan muxim o‘zgarishlardan biri jamiyat va davlatlar boshqaruvini demokratlashtirish jarayonidir. 1990 yillar boshida geosiyosiy nuqtai nazardan jahonga qaralsa, dunyo xaritasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Varshava shartnomasi parchalandi, Sovet iqtisodiy o‘zaro yordamining tugashi Markaziy va Sharqiy Yevropani Moskvaga bog‘liqligidan xalos etdi. Ular har biri mustaqil Yevropa va xalqaro munosabatlar aktoriga aylanishdi. Bu davlatlar o‘z taraqqiyotining zaruriy asosi sifatida demokratik rivojlanish yo‘liga o‘tishdi. Shuning uchun ham sobiq sotsialistik davlatlarning katta guruhi demokratik tizimga o‘tishi xalqaro munosabatlarning muhim jihati hisoblanadi³. Shu bilan birga ba’zi bir taqiqotchilar globallashuv, xususan, demokratiyaning globallashuvi va fuqarolik jamiyatining kengayishi o‘ta qiyin jarayon ekanligini ta’kidlaydilar. Masalan, I.Ramone fikricha, global dunyo tartiboti kelajakda davlatlarni birlashtirmaydi, aksincha u G‘arbiy Yevropa va AQShning jahon siyosatidagi roli

¹ Современный международные отношения. Учебник. Под.ред. А.В.Торкунова. - М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН), 1999. – С. 26-28.

² Goodchoc L. (UR) The United States and Europa in Global Arena. - London.: 1999. - P. 184.

³ Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов, том 2. Под.ред. д.п.н. А.Д.Богатурова. - М.: Культурная революция, 2006. - С. 513.

va ahamiyatini oshirishga, davlatlar o'rtasida o'zaro farqlarni oshirishga xizmat qiladi.

So'ngi yillarda demokratik jarayonlarning ma'lum davlatlarning manfaatlariga bo'ysundirishga urinish ham kuzatilmoqda, bu bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Agar ilgari qudratli davlatlar geosiyosiy masalalarni yechish uchun harbiy kuchlarga, to'ntarishlar uyushtirishga, qonli janglarga zo'r berishgan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, globallashtirish taqdim etayotgan yangi texnologiyalar bilan qurollangan va yangi vositalarni ishga solgan holda legitim hokimiyatni almashtira oladilar. Ushbu yangi vositalar "rangli inqiloblar" deb nomlanadi¹.

Xususan, "rangli inqiloblar" seriyasini amalga oshirishda yetakchi bo'lgan AQShda jahonda "demokratiyani yoyish" davlat rahbarlari oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylangan deyish mumkin. Ma'lumki, bu holatni bir qator davlat strategiyalarida, prezident va mansabdor shaxslar nutqida hamda ilmiy doiralar asarlarida kuzatish mumkin.

AQShning sobiq prezidenti B.Klinton tasdiqlagan 1997 yilgi "Yangi yuz yillik uchun Milliy xavfsizlik strategiyasi"da quyidagi fikrga urg'u berilgan:

"Qo'shma Shtatlarning hayotiy muhim manfaatlari Rossiya, Ukraina va boshqa yangi mustaqil davlatlarning barqaror zamonaviy demokratiyani yaratish, tinch va gullab-yashnayotgan, integratsiyalashgan jahon hamjamiyatini tashkil etish yo'lidagi evolyusiyasidan iborat"².

Shuningdek, "demokratiyani yoyish" niqobi ostida muayyan davlat ichki ishlariga aralashish, ularga bosim o'tkazish AQSh ilmiy doiralari tomonidan tabiiy fenomen sifatida isbotlashga urinishni kuzatish mumkin. Masalan, AQSh Xavfsizlik masalalari bo'yicha sobiq davlat maslahatchisi G.Kissenjerning yaqinda chop etilgan "Diplomatiya" asarida: "AQSh qadriyat va tartibotlari dunyoning barcha mamlakatlarida amalga oshirilsagina jahon siyosatida barqarorlik,

¹ Саидолимов С., Жўраев С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. - Т.: Академия, 2007. - Б. 118.

² National Security Council - <http://clinton3.nara.gov/WH/EOP/NSC/html/nschome.html>

barkamolikka asos solinishi mumkin”, degan oshkora missionistik g‘oya ilgari surilgan. A.Straus o‘zining “Unipolyarizm konsepsiyasi”da XXI asrda bir qutbli jahon tartiboti qaror topishi, u Yer kurrasi aholisi va moddiy salohiyatining 70% ga yaqinini qamrab olgan ulkan “yagona makon” va, nihoyat, uning homiy va rahnamosi Amerika Qo‘shma Shtatlari bo‘lishi zarurligini isbotlashga harakat qilgan¹.

“Mintaqaviy siyosat jamg‘armasi” ekspertlari ta’kidlaganidek, milliy manfaatlarni globallashtirish globallashuvning ilk va asosiy kamchiligi hisoblanadi. Chunki bu hatti xarakatlar siyosiy gegomonlikka yo‘l ochishi mumkin². Mazkur omil bugungi kunda ham, ikki lager raqobati tugagan davrda ham, qurollanish jarayonining o‘sishi va davlatlar o‘rtasidagi muvozanatga kuch omili orqali erishish kuzatilmoqda.

Birinchidan, ikki qutbli dunyoning parchalanishi bilan bir qator mayda, biroq ko‘p sonli qurolli to‘qnashuvlar - eng avvalo, sobiq ko‘p millatli davlatlar, hududlarda paydo bo‘lishiga olib keldi.

Ikkinchidan, rus olimlari yondashuvicha, AQSh va NATO mamlakatlari demokratiyani qo‘llab-quvvatlash va inson huquqlarini himoya qilish bahonasida Sobiq Sovet ittifoqiga qarshi harakatlarini to‘xtatmasdan mintaqaviy va milliy nizolarda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun keng ko‘lamda foydalanishmoqda³.

Milliy davlatlar hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida ham bosh aktorlar hisoblanadi. Biroq shu bilan bir qatorda yangi aktorlar vujudga kelmoqda va ularning roli tobora oshib bormoqda. Ular qatoriga xalqaro tashkilotlar, TMK, turli harakatlar va individlarni (masalan, terrorist Usama bin Laden) ham kiritish mumkin.

¹ Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик (Глобал контекст) - Т.: Академия, 2007. – Б.100.

² Саидолимов С., Жўраев С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. - Т.: Академия, 2007. – Б. 52.

³ Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов, 2 том. Под.ред. д.п.н. Богатурова А.Д. - М.: Культурная революция, 2006. – Б. 515.

Xalqaro tashkilotlar nisbatan uzoq bo'lmagan yo'lni bosib o'tar ekan, XXI asrga jahon geosiyosiy jarayonlarining to'laqonli ishtirokchilari bo'lib kirdi¹. Xalqaro tashkilotlar ikki turga bo'linadi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlar. Ikkinchi turkumdagi tashkilotlar jadal o'sib bormoqda, 1968 yil ular soni 1899ga teng bo'lsa, 1998 yil ular soni 5766 tani tashkil etgan².

Aytish mumkinki, globalizatsiya jahon siyosatidagi an'anaviy xalqaro munosabatlarni bartaraf etib, an'anaviy (davlatlar) va yangi (TMK, guruhlar, turli harakatlar, xalqaro tashkilotlar, individlar) sub'ektlar o'rtasida o'zaro faoliyat qobig'i doirasida aloqalar qilish imkoniyatini vujudga keltirdi³.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jahon siyosatida yangicha tizimni o'ziga xos o'tish davriga duch kelgan, shu bilan birga uning tizim sifatida tarkibi va ko'lami kengayib bormoqda. Bir tomondan davlatlar o'rtasidagi aloqalar, xalqaro geosiyosiy muvozanatning o'zgaruvchan xarakteriga ega ekanligi, yangi jahon tartibotining to'liq shakllanmaganligi, bir vaqtda ikki muqobil globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayoning avj olishi bir qator muammolar va turli qurolli nizolarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, davlatlararo harbiy mustahkamlanish yuz berayotgan davrda hozirgi zamon jahon siyosatining asosiy vazifasi yuzaga kelgan davlatlar o'rtasidagi nizolar, qurolli to'qnashuvlar va boshqa global muammolarni hal etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib qoldi. Bu yo'lda an'anaviy aktorlar o'rtasidagi munosabatlarning qanday boshqarilishi, davlatlar va noan'anaviy sub'ektlar aloqalarini kuchaytirishga urinishlar kelgusi xalqaro munosabatlar tizimining qay shaklda rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

¹ Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия, 2007. - Б. 46 -71.

² Современный международные отношения. Учебник. Под ред. А.В.Торкунова. - М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН), 1999. - С. 123.

³ Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов, том 2. Под ред. д.п.н. Богатурова А.Д. - М.: Культурная революция, 2006. - С. 581 .

2-BOB. ISROIL ICHKI SIYOSATI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

2.1. Zamonaviy bosqichda Isroil ichki siyosatini yuritishining asosiy jihatlari

Isroil davlati joylashgan Yaqin Sharq mintaqasining ichki va tashqi siyosiy jarayonlarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, bu hudud mintaqaviy xalqaro munosabatlardagi eng qaynoq va mojarolarga layoqatli joylardan biriga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu mintaqaning boy tarixiy me'rosi hozirgi kungi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy muammolar bilan aralashib ketgan desak adashmaymiz. Bu yerda uch jahon dinlarining muqaddas qadamjolari joylashgan: musulmonlar, xristianlar va yahudiylarning muqaddas maskanlari. Xuddi shu mintaqada Yaqin Sharq va undagi xalqlarning taqdiri global tarixiy jarayonlar bilan bog'lanib ketgan.

Bevosita bu hududda aktual muammoga aylangan arab-isroil mojarosi mintaqaning eng asosiy voqealari yuz beradigan sahnasiga aylanib qolgan. Yuqorida aytib o'tilgan geosiyosiy joylashuv, falastinliklar va isroilliklar o'rtasida to'xtamay kelayotgan mojaro sabab, ushbu hududda joylashgan barcha davlatlar o'zining va aholisining milliy xavfsizligiga katta e'tibor qaratmoqlari lozim bo'ladi.

Ko'plab xalqaro tahlilchilarning fikriga ko'ra, Isroil davlatining hozirgi kundagi geosiyosiy holati asosan uch omil orqali belgilanadi: geografik, demografik va madaniy.¹

Bu omillarni birma-bir tahlil qiladigan bo'lsak, Isroilning ushbu regiondagi geosiyosiy joylashuvi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

¹ Трейгер И. Похищение – это больше, чем похищение! // Unipress. - Москва. 2006. – С.34.

Geografik jihatdan Isroil juda kichik maydonga ega bo'lib, agar qo'shni davlatlar bilan harbiy mojaro yuz beradigan holat vujudga keladigan bo'lsa yetarli strategik maydon mavjud emas.

Boshqa tarafdin olib qaraganda, hududning kichikligi ma'lum ustunliklarni ham berishi mumkin, chunki Isroil armiyasining o'z kuchlarini tezda mobillashtirish imkoniyatining borligi urushning bir frontidan boshqasigacha harbiy qismlarni zudlik bilan ko'chirishga sharoit yaratadi.

Demografik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, Isroil juda ham oz aholiga ega bo'lgan davlat hisoblanadi, lekin bu aholi kuchli harbiy zarbalar berish imkoniyatiga ega.

Madaniy omil - bu Isroilning eng kuchli ustun jihatlaridan biridir. Gap yahudiylarning urush olib borish madaniyati va texnologiyalari jihatidan qo'shni davlatlariga nisbatan ancha oldinda ekanligi haqida ketmoqda.

Birinchi ikki omillar o'zgarishlarga layoqatli emas. Davlatning geografiyasini o'zgartirish va qisqa muddatlar ichida katta demografik o'zgarishlarning yuz berishini kutish qiyin. Ammo uchinchi omil hisoblangan, madaniy omil o'zgarishlarga duch kelishi mumkin. Yuqoridagi Isroilning texnologik va operativ harbiy ustunlikka ega ekanligi haqidagi fakt umuman absolyut jihat emas. Arablar Isroilning harbiy mohirligi va urush olib borish madaniyatiga yetib olishlari va tez orada undan o'zib ketishlari ham mumkin va bevosita Isroilni harbiy jihatdan ortda qoldirishlari mumkin. Agar aytib o'tilgan narsalar haqiqatga aylanib, arablar bu ustunliklarni qo'lga kiritadigan bo'lishsa, yuqoridagi uch omilning barchasi Isroilning manfaatlariga salbiy ta'sir o'tkazishni boshlaydi va bu davlat juda og'ir ahvolda qolib ketishi mumkin.

Butun Sovuq Urush davomida-80 yillarning yarmiga qadar Isroil va ayrim arab mamlakatlarining rahbarlari o'z davlatlari xavfsizligi masalasiga tinchlik yo'lida bir-birlari bilan mavjud bo'lish va moslashish prinsiplariga muvofiq siyosat olib borib bo'lmasligiga ishonishgan. Bundan tashqari, bu hududda olib borilayotgan siyosiy kurashlarni bevosita butun jahon sahnasini egallagan ikki

buyuk kuchlar-AQSh va Sovet Ittifoqining ushbu mintaqadagi jarayonlarga aloqasi borligi jihatidan qarash amaliyoti mavjud edi.

Isroilning birinchi bosh vaziri Ben Gurion va undan keyingi hokimiyatga erishgan vazirlar Isroilning 1950 yillarning boshlarida ishlab chiqilgan milliy xavfsizlik konsepsiyasini tahlil qilishda asosan "arablar bilan o'ralganlik nazariyasi"ga tayanishar edi. Ben Gurion birlashgan arab kuchlaridan yuqori bo'luvchi harbiy ustunlikni ta'minlash zaruriyatiga katta ahamiyat qaratar edi. Uning fikricha, bu harbiy ustunlik butun arablar uchun "qo'rqutuvchi" omil sifatida xizmat qilishi va Isroil armiyasining yangi hududlarni egallashidagi operatsiyalarida yordam berishi kerak edi.

"Arablar bilan o'ralganlik nazariyasi" va Isroilni "qurshab olingan qal'a" siymosida gavdalanganligi tufayli Isroil hukumatining butun arab-isroil mojarosi davrida eng asosiy e'tiborni yahudiy armiyasining tezda joy almashtirish masalasiga qaratishga majbur qildi. Bu orqali harbiy kuchlar mahalliy miqyosda ham va keng ko'lamdagi harbiy operatsiyalarni qo'shni arab mamlakatlari hududlarida ham olib borish imkoniyati mavjud bo'lar edi.

"To'xtovsiz harakat doktrinasini" nomini olgan SAXAL (Isroil armiyasi) ning harbiy doktrinasida arab davlatlari hududlariga harbiy reydlar o'tkazish Isroil milliy xavfsizligini ta'minlash siyosatining doimiy elementi sifatida joy olgan edi. Bunday reydlar "Isroil uchun nomaqbul bo'lgan qo'shni mamlakatlardagi har qanday ichki siyosiy o'zgarishlar" vaqtida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi. Bundan tashqari, ushbu reydlar u yoki bu arab davlatidagi Isroilning ochiq yoki yashirin tarafdorini qo'llab-quvvatlash majburiyati paydo bo'lganda ham qo'llanilishi mumkin.

Isroil davlatining geosiyosiy joylashuvini ikki xil tarafdin ko'rib chiqsa bo'ladi. Birinchisini uning ustun jihatlari deb oladigan bo'lsak, ikkinchi tarafdin esa bu davlat joylashuvi jihatdan juda zaifligiga ham e'tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, Isroil va Falastin hududlari Yaqin Sharqning qoq markazi hisoblanib, bu yerdagi har qanday voqealarning rivojlanishi dunyo geosiyosatiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Isroil davlatining bevosita joylashuvi haqida gapiradigan bo'lsak, bu davlat tashkil qilinishi bilanoq jahon geosiyosatining markaziga aylanganligini aytib o'tish lozim. Isroilning kuchli harbiy imkoniyatlari bu davlatni sharqiy O'rtaer dengizi hududidagi asosiy rol o'ynovchi harbiy-siyosiy kuchga aylantiradi. Kerak vaqtda, Isroil NATOning janubiy qanotini himoya qila oladigan strategik baza vazifasini bajara oladi, janubiy va sharqiy Osiyoga eltuvchi asosiy yo'llarni to'sib qo'ya oladi-misol uchun Suvaysh kanalini; Isroil hududi atrofida jahon neft resurslarining uchdan biriga yaqini joylashgan. Ular asosan ushbu uchlikda jamlangan: g'arbda Liviya, sharqda Eron va janubda Saudiya Arabistoni hududlaridagi qora oltin zahiralar.

Bundan tashqari, Isroil operativ baza sifatida turli vaziyat va operatsiyalar davomida o'zini ko'rsatganini ham keltirib o'tish mumkin. Ular jumlasiga, 1976 yilning 4 iyulida Uganda hududiga, "Ayr Franc" aviakompaniyasi samolyotidagi yo'lovchilarning asirga olinganligi vaqtida o'tkazilgan reydni va 1981 yilning 7 iyunida Iroqning yadroviy reaktorlariga qarshi havodan berilgan zarbalarni qo'shishimiz mumkin. Yuqoridagi operatsiyalar chog'ida Isroil keng Yaqin Sharq va Sharqiy Afrika hududlarini bevosita havo kuchlari yordamida nazorat qilib turish imkoni borligini yana bir bor tasdiqladi.

Mamlakat hududini uning aholisiga solishtirganda juda ham ulkan harbiy salohiyati Isroilning o'zi joylashgan regiondagi raqiblari tomonidan doimo xavf solinib turganligi tufayli vujudga kelgan desak bo'ladi. Isroil armiyasining yuqori harbiy imkoniyatlarini tashkil etuvchi omillar sirasiga quyidagilarni kiritisa bo'ladi: yuqori samarali harbiy infratuzulma, Isroil bilan solishtirsa bo'ladigan davlatlarning hech birida yo'q texnologik imkoniyatlar va boy harbiy tajriba.

Yuqoridagi Isroilning harbiy va strategik joylashuvi jihatidan barcha ustun taraflarini sanab o'tganimizdan so'ng, endi uning zaif tomonlarini ko'rib chiqsak.

Birinchidan, Isroil aholisining kam sonliligi va ko'pchilik fuqarolarining shaharlarga to'planganligi. 2008 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Isroil aholisining umumiy soni 7 milliondan ortiqroq. Bu sonni uni o'rab turgan arab davlatlari aholisining soniga tenglashtirsak, uning naqadar kamligini anglashimiz mumkin. Quyidagi jadvalda ushbu davlat aholilarining soni solishtirilgan¹.

Davlat nomi	Isroil	Misr	Suriya	Iordaniya	Livan
Aholisi	7 112 000	81 713 000	19 747 000	6 198 000	3 970 000
Jami	7 112 000	111 628 000			

Yuqorida faqatgina Isroil bilan chegaradosh bo'lgan davlatlar solishtirilgan, agarda bu davlatlarning ichiga Isroilning raqiblari hisoblangan Saudiya Arabistoni, Iroq va Eronni ham qo'shadigan bo'lsak, bu sonlarning farqi juda ham yirik ko'rinishga kelib qoladi. Aytib o'tilgan bu uch davlatlarning aholisining umumiy soni 120 milliondan oshib ketadi².

Ikkinchidan, Isroil davlati hududining kichikligi va unda strategik hom-ashyolarning yo'qligi. Isroilda qora oltin zahiralarining yo'qligi bu davlatni ushbu muhim tabiiy boylik importiga qaram qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqib, ushbu strategik resurslarning tanqisligi harbiy mojarolar vaqtida Isroilga ancha salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Falastin avtonomiyasini ham Isroilning bir qismi deb oladigan bo'lsak, uning G'azo sektori va Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'idagi hududlardan tashkil topganligini aytishimiz lozim. Bu hududlarda asosan arab millatiga mansub aholi yashaydi va ularning aksariyatining turmushi bevosita Isroil davlati hududidagi ish joylariga bog'langan. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, avtonomiyaning ichida juda ko'plab yahudiy yashash joylari mavjud. Ularning xavfsizligi va hayot tarzini ta'minlash ham Isroilning yana bir muammolaridan

¹ CIA, "The World Factbook 2007-2008".

² CIA, "The World Factbook 2007-2008".

biriga aylangan. Bu shaharchalarda istiqomat qiluvchi yahudiylar o'z uylarini katta xavflarga qaramay tark etmoqchi emasliklari ham e'tiborga molik.

Isroil hududinig barcha qismiga qo'shni davlat yerlaridan har qanday zamonaviy artilleriya qurollaridan zarba berilishi mumkin. Bunday zarbalar Quddus shahridan tortib, barcha yirik shahar markazlarigacha yetib borishi mumkin.

Isroilning butun hududi bo'ylab qo'shni davlatlarning aviasion hamlalari o'tkazilishi mumkin. Masalan, Saudiya Arabistoni hududidan Isroilgacha zamonaviy harbiy samolyotlarning uchib borish vaqti bir necha daqiqalarni tashkil yetadi.

Hozirgi kunda Isroil armiyasining safida 190 mingga yaqin harbiy xizmat qiladi. Lekin uning asosiy kuchi, shubhasiz, rezervdagi aholisi hisoblanadi. Mojaroli vaziyat vaqtida armiya saflari to'ldirishi mumkin bo'lgan rezervdagi askarlar soni 450 mingga tengdir.

Quyidagi jadvalda Isroil davlati va uning arab qo'shnilarining armiyalaridagi askarlar sonini solishtirishga harakat qilindi. Quyidagi davlatlar bo'yicha ma'lumotlarni A. D. Epshteynning "Zamonaviy Isroilda milliy xavfsizlikni ta'minlash infrastrukturasini" nomli maqolasida ma'lum qilingan¹.

	Isroil	Misr	Suriya	Iordaniya	Livan
Faoliyatdagi harbiylar soni	186 000	450 000	289 000	101 000	61 000
Rezervdagi harbiylar soni	445 000	254 000	132 000	50 000	40 000
Jami	631 000	704 000	421 000	151 000	101 000
		1 377 000			

¹ Эпштейн, А.Д. Инфраструктура обеспечения национальной безопасности в современном Израиле. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2005/30-11-05a.htm>

Isroil armiyasining yuqorida ko'rsatilgan sonlari arablarning armiyalari oldida unchalik ham katta bo'lmasa-da, yuqorida aytib o'tilganidek, yahudiylar armiyasining texnik imkoniyatlari va askarlar malakasi yuqoriligi jihatidan arablardan ancha ustun turishadi.

2002 yilda Isroil davlatining mudofaa xarajatlari 9,84 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. (1984 yilda bu ko'rsatkich 4,3 milliard AQSh dollariga teng edi.) Isroil davlatining yuqoridagi xarajatlari doimiy ravishda o'sib borayotganiga qaramay, aholi soniga nisbatan bu ko'rsatkich stabilligicha qolmoqda. Albatta, bu sonlarni kam deb ham bo'lmaydi, yiliga 1,5 ming AQSh dollariga teng¹.

Isroilning mudofaa va armiyasiga sarf qilayotgan xarajatlarni qoplashda unga AQSh tomonidan ko'rsatilayotgan beg'araz yordam ko'mak bermoqda. 1974 yildan 2002 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida AQSh hukumati tomonidan Isroilning mudofaa xarajatlari uchun 41 milliard dollardan oshiqroq mablag' ajratilgan. Isroil davlatining Amerika hukumatidan olayotgan pullarining aksariyat qismini aynan shu mamlakatning o'zida harbiy texnikalar, qurol-aslaha va eng oxirgi rusumdagi texnologiyalarni harid qilishga sarf qilishining majburligini ham aytib o'tish lozim. Ushbu AQShga bog'langanlik Isroilning harbiy sanoatini rivojlanishiga hech ham to'sqinlik qilmaydi. Shu o'rinda Isroil davlatining yillik harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarish miqdori 3,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketishini aytish o'rinlidir. Ushbu ishlab chiqarilgan harbiy sanoat mollarining aksariyat qismi chet davlatlari uchun eksportga chiqariladi. Isroil davlatining birgina o'ziga jahon qurol savdosining 8 foizi to'g'ri keladi².

So'z so'ngida shuni aytishimiz mumkinki, Isroil davlatining Yaqin Sharq regionida va qolaversa, jahon geosiyosiy xaritasida joylashgan o'rnini belgilab beruvchi omillar bir qanchani tashkil etadi. Ularning aksariyati yahudiy millati va uning tarixi bilan bevosita bog'langan desak adashmaymiz. Yahudiy millatining Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng, o'z uylari sifatida Falastin hududlariga borib

¹ Эпштейн, А.Д. Инфраструктура обеспечения национальной безопасности в современном Израиле. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2005/30-11-05a.htm>

² Ўша ерда.

joylashishlari va bunga Buyuk Britaniya va boshqa yetakchi davlatlarning mone'lik qilmaganliklari va ularning o'z davlatlarini barpo etishlariga ko'maklashganliklari Yaqin Sharq mintaqasini zamonaviy tarixning eng mojaroli hududlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

O'zlariga dushman sifatida ko'radigan arab mamlakatlari bilan o'ralganliklari va strategik jihatdan juda zaif hududga ega bo'lganliklari ham yahudiy davlatining o'z mustaqilligini saqlab qolishiga to'sqinlik qila olmadi. Bunga esa qator omillar sabab bo'ldi deya olamiz.

Ularning eng asosiylari sifatida yuqorida sanab o'tganimizdek, quyidagilarni keltirish mumkin bo'ladi:

- Isroil harbiy infratuzilmasining juda puxta tashkil qilinganligi, isroillik aholining harbiy tayyorgarligining yuqoriligi;
- Avvaliga Fransiya, keyinchalik AQSh siymosida o'zining eng yaqin strategik hamkorligining mavjudligi va bevosita bu davlatlarning Isroil hukumatiga siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy va harbiy ko'maklari;
- Chet el davlatlarida joylashgan yahudiy jamiyatlarining ham moddiy va siyosiy qo'llab-quvvatlashlari va boshqalar.

Isroil Yaqin Sharq mintaqasi va O'rtaer dengizi hududidagi muhim davlatga aylandi. Shuni aytish mumkinki kerak vaqtda, Isroil NATOning janubiy qanotini himoya qila oladigan strategik baza vazifasini bajara oladi, janubiy va sharqiy Osiyoga eltuvchi asosiy yo'llarni to'sib qo'ya oladi (misol uchun Suvaysh kanalini), Isroil hududi atrofida jahon neft resurslarining uchdan biriga yaqini joylashganligi ham bu davlatning ahamiyatini yanada oshirib yuboradi.

Yuqoridagilardan tashqari, Isroilning zaif nuqtalari ham bu mamlakatning geosiyosiy joylashuviga ta'sir etadi. Bularni orasida Isroil hududining kichikligidan tortib, aholisining kamsonliligini keltirish mumkin bo'ladi.

2.2. Isroil ichki siyosatini shakllanishida siyosiy partiyalarning o‘rni

Yahudiylar davlati miloddan avvalgi 1250-yilgacha yagona markazlashgan bo‘lgan. Keyinchalik ular 2 qismga yani Iuda va Isroilga bo‘lingan. Miloddan avvalgi II asrda arablar tomonidan Falastin hududlaridan yahudiylar quvib chiqarila boshlandi, natijada Falastinda arablar soni orta boshladi va arablar boshqaruviga asoslangan davlat shakllandi. Falastin Rim imperiyasi mustamlakisidan keyin Arab xalifaligi(VII asr), Usmoniylar imperiyasi (XVI asr) tomonidan boshqarildi.

1920-yilda San-Remo konferensiyasi qaroriga ko‘ra Falastin hududi Buyuk Britaniya Mandadiga aylantirildi. XIX asrdan boshlab chet davlatlarida yashayotgan yahudiylar Falastinga qayta boshlaydi va natijada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Falastinda arablar va yahudiylar soni tenglashadi. Yahudiylar sonining ko‘payishi, albatta arablarga yoqmaydi. Arablar (1920, 1929 va 1936) yillarda bir vaqtning o‘zida ham yahudiylarga ham Buyuk Britaniyaga qarshi quzg‘alon ko‘taradilar. Mamlakatda parokandalik yuz beradi. Bu muammoni hal qilish uchun BMT Bosh Assambleyasi arablar qarshiligiga qaramay 181 N. rezalyusiyasini qabul qiladi. Unga ko‘ra yahudiylar (14 ming kv. Km) va arablar (11 ming kv. km) davlatlari tuzildi. 2 din tuqnashgan shahar Quddus esa xalqaro rejim deb e‘lon qilindi.

1948-yil 14-may kuni Isroil davlati tuzilganligi e‘lon qilindi. Bu davlatni birinchi bo‘lib SSSR, ikkinchi bo‘lib esa AQSh qabul qildi. Bu voqeadan keyin darhol Misr, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni va Iordaniya yangi davlatga urush e‘lon qildi va bu isroil-arab urushi boshlanishini anglatardi.

Birinchi arab-isroil urushi (1948-1949-yillar). Bu urushda arablar ichida bo‘linish yuz berganligi va birlik yo‘qolishi arablar mablug‘iyatiga olib keldi. Urush Isroilga yana 7 ming kv.kmni hadya qildi. 1949-yil falastinlik qochoqlar

soni 900 mingga yetadi. Misr G'azo sektoriga, Iordaniya iordan daryosi g'arbiy qirg'oqlariga ega bo'ladi. Quddus ikkiga bo'linadi: Sharqiy tomonni Iordaniya, g'arbini esa Isroil nazoratga oladi. 1950-yil Isroil BMT BA 181-rezalyusiyasini buzadi, yani poytaxtni Tel-Avivdan Quddusga kuchiradi.

Shuni ta'kidlash joizkai, Isroil ichki siyosati xavfsizligi barqaror bo'lishi uchun uning qo'shni arabdavlatlari bilan munosabatlari yaxshilanishi talab qilinadi. Isroil xavfsizligiga doimiy ravishda tahdidlar bo'lib turishi Falastinning G'azo sektoridan XAMAS jangarilari tomonidan Isroil hududlariga raketalarining otilishi, hamda Livandagi "Hizbulloh" ning yetakchilari sionizm v radikalizmga qarshi jihod e'lon qilishi kabi tahdidlarni uchratish mumkin.

Kurashning maqsadi qilib Isroil bosqinchilarini Livandan quvib chiqarish, kelajakda esa Isroilni butunlay yo'q qilib yuborish, Quddus ustidan islom nazoratini o'rnatish, Livanda Eron na'munasi bo'yicha Islom davlati qurish belgilangan. Hozirda AQSh davlat departamenti tasnifi bo'yicha, u eng xavfli xalqaro terroristik tashkilotlar ro'yxatida turadi.

Isroil tomonidan bosib olingan yerlarda tashkilotning bo'limlari tashkil qilinib, ular Isroil armiyasi - Saxalga qarshi harbiy harakatlarni olib borishgan. "Hizbulloh"ning dastlabki terroristik aktlari 1983-yil 23-oktabrda Livandagi Amerika va Fransuz tinchlik sevar kontingentlaridagi portlashlaridir. Unda 300ga yaqin harbiylar halok bo'lishgan.

1984-yili tashkilot jangarilari Bayrutdagi AQSh elchixonasida amaliyot o'tkazdilar va bu yerda ham yigirmadan ortiq kishi halok bo'ldi.

"Hizbulloh" shuningdek o'z faoliyatini "Islom jihodi","Adolat inqilobiy tashkiloti", "Falastinni ozod qilish islom harakati" kabi ekstremistik tashkilotlar nomidan ham olib boradi.

Bugungi kunda tashkilot a'zolarining soni 5000 kishiga yaqin. "Hizbulloh" asosan fidoyi, kamsavodli shia musulmonlaridan iborat bo'lib, o'z rahbarlariga so'zsiz bo'ysunadi va ularning har qanday ko'rsatmalarini bekami ko'st bajaradi. Tashkilot a'zolarining ko'pchiligi yoshlardir. U yoki bu sabablarga ko'ra o'qish,

ish topish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar bu tashkilot vakillarining targ'ibotiga berilib ularga egrashganlar. "Hizbulloh" jangarilarining moddiy ta'minot darajasi Livan partiyalari va tashkilotlariga nisbatan ancha yuqori¹. Chunki "Hizbulloh" ni Eron moliyaviy jihatdan ta'minlab turadi, yiliga "Hizbulloh" ga tahminan 100 mln. dollar ajratadi.

Tashkilotning oliy din rahbari Shayh Sayyid Muhammad Fazlullohdir. Tashkilotni 12 ta diniy, siyosiy va harbiy shahslardan iborat oliy maslahat kengashi boshqaradi. Tashkilot rahbarlarining aytishicha, "Hizbulloh" partiya emas, xalq haqiqatdir. Oliy maslahat kengashida ko'riladigan masalada bahsliiy holat yuzaga kelganida masala ko'rib chiqish uchun Tehronga taqdim etiladi.

1992-yildan boshlab "Hizbulloh"ni Shayh Hasan Nasrulloh boshqarib kelmoqda. Bevosita, Isroil-Livan munosabatlaridagi "Hizbulloh" siyosiy harakati tutgan o'rniga to'xtaladigan bo'lsak, "Hizbulloh" ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda juda muhim o'rin tutadi. Isroil-Livan munosabatlarining keskinlashuvida "Hizbulloh" asosiy o'rinni tutadi. Chunki Isroilga qarshi Livan davlati emas, balki "Hizbulloh" tashkiloti kurash olib bormoqda. O'z navbatida Isroil ham Livan davlatiga qarshi emas balki janubiy Livanda joylashgan "Hizbulloh"ga qarshi urushmoqda. Isroil davlati bu yerda hukumatning kuchsizligi bo'yicha Livanni ham ayblagan lekin asosiy aybdor "Hizbulloh" bo'lib chiqmoqda.

Isroil hukumati tasdiqlagan Livan qarshi hujum operatsiyasida asosiy nishon "Hizbulloh" dir. Bu operatsiyaning maqsadi -"Hizbulloh" terroristik harakatiga maksimal zarar yetkazish va Livan hukumatiga janubiy Livandagi vaziyatni o'z nazoratiga olishi uchun bosim o'tkazish, doimiy armiya esa Livan-Isroil chegarasida tinchlikni saqlashi deb ko'rsatilgan. O'z navbatida Isroil prezidenti Shimon Peresning aytishicha, harbiy operatsiya Livan davlatiga emas balki, "Hizbulloh" tashkilotiga qarshi qaratilgan.

¹ Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТашГИВ, 2005. - С. 13.

Bu mojaradagi tomonlarning istagiga keladigan bo'lsak, Isroil bu yerda garovga olingan ikki harbiyni qaytarishni talab qilayotgan bo'lsa, "Hizbulloh" esa Isroildagi qamoqhonalarda saqlanayotgan shia dindoshlari va Falastin tutqunlarini ozodlikka chiqarilishini talab qilgan. Isroil tomoni "Hizbulloh" ga qaratilgan ushbu harbiy operatsiyalari natijasida "Hizbulloh"ni Livan-Isroil cheraga hududidan butunlay chiqarib yuborish, uning liderlariga suiqasd uyushtirish orali esa tashkilotni butunlay izdan chiqarishni rejalashtirgan.

Livanning BMTdagi vakili Nuhad Mahmudning aytishicha, "bizning nuqtaiy nazarimizcha, "Hizbulloh" Isroil akkupatsiyasiga qarshilik ko'rsatib Livan jamiyatida o'zining qonuniy mavqeiga erishdi"¹.

Yuqorida aytilganidek, "Hizbulloh" tashkilotining ortida Eron Islom Respublikasi turadi. Eronning Yaqin Sharqdagi maxfiy missialarini bajaruvchi qurollaridan biri "Hizbulloh" harakatidir².

Shuni takidlash kerakki, "Hizbulloh" harakati orqali Eron Yaqin Sharqda Isroilga qarshi kurash uchun foydalanadi. "Hizbulloh" ning 1985-yilgi deklaratsiyasida shunday deyiladi: "Livan muammosini hal qilish—Islom Respublikasi tuzish, va faqat shu rejimgina barcha Livan halqi uchun adolat va tenglikni ta'minlashi mumkin". Bu esa bevosita Oyatullo Humaynining g'oyalari bilan mos keladi.

Xorij OAVning bildirishicha, "Hizbulloh" o'z tarkibiga 3-3.5 ming kishini birlashtiradi, shulardan 150-200 nafari Eron armiyasi harbiylaridir. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra unung a'zolari 20000 dan ham ortiq³.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Hizbulloh" shunga o'xshash boshqa tashkilotlardan farqli o'laroq, imtiyozlangan holatda. U moliyaviy manbalar, pul topish va shunga o'xshash boshqa muammolar bilan shug'ullanmaydi. Eroning

¹ http://mideast.ru/base_rus_art_4478.html.

² http://www.religio.ru/dosje/21/93j3rimt.html/manba:ICT--Terrorizm_and_counter-terrorism.

³ Shestakov E. RAZrivnaya Politika // Rossiyskaya gazeta, 29.03. 2005.

homiyligi orqali “Hizbulloh”ga kattagina va doyimiy moliyaviy mablag‘ kelib turadi¹.

Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, hozirgi kunda Eron yadro dasturi bo‘yicha jahon hamjamiyatining etibori

Eronga qaratilgan. “Hizbulloh” harakatini jonlantirish va bu bilan Isroil-Livan chegara hududlarida vaziyatni murakkablashtirish orqalik Eron jahon hamjamiyatining etiborini biroz bo‘lsa ham chalg‘itishga urunmoqda. Lekin bu bilan xalqaro hamjamiyat Eron muammosidan chalg‘isi uni e‘tiborsiz qoldirishi mumkin emas².

Yaqin Sharq mintaqasidagi keskin vaziyatlar mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash masalasini dolzarb ekanligini yana bir bor isbotladi. “Har bir mintaqada xavfsizlikni ta‘minlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Shuningdek, har bir mintaqaning o‘z xususiyatlari, o‘z tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor”, - deb ta‘kidlagan Prezidentimiz I.Karimov³.

Isroilning “Hizbulloh”ga qarshi kurash bahonasida Livanning bombardimon qilishi, mamlakat infratuzilmasini izdan chiqarishi arab dunyosida qoralansada, arab davlatlari bu masalada unchalik faol bo‘lmadilar.

Ayni paytda aksariyat arab davlatlarining Isroil Livanda olib borilgan harbiy operatsiyalarga nisbatan mavqelari bir-biridan farqli bo‘ldi. Ularning yagona bir mavqega emasligi ham Isroilning Livandagi faoliyatiga sabab bo‘lgan omillardan biri, deb hisoblanmoqda.

Yirik va nufuzli arab mamlakati hisoblangan Misr Arab Respublikasi o‘z siyosati ta‘sirchanligi jihatidan boshqalardan ajralib turdi. Yaqin Sharqdagi asosiy o‘yinchilar va Vashingtonning mintaqadagi strategik sheriklari hisoblangan Misr, Saudiya Arabistoni va Iordaniya harbiy harakatlarning boshlanishida Livandagi ekstremistik kuchlarga ishora qildilar. Shuningdek, Misr tomonidan Isroilning “Hizbulloh” harakati bahonasida Livanda harbiy operatsiyalar amalga

¹ Matthew Levitt. Iran: Foremost State Sponsor of Terror, February 16, 2005.

² Valentin Yurchenko. Blijniy Vostok: prichiny I vozmojnyye posledstviya konflikta.// RIA “Novosti”, 19.07.2006.

³ Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. –T.: O‘zbekiston, 1998, 6-tom. – B.37.

oshirilishining aybdorlari sifatida Qohira “Hizbulloh” harakatidan tashqari shia ekstremisrlarini qo‘llab-quvvatlovchi Eron va Suriyaga ham ishora qiladi.

Suriya esa Isroildan 1967 yilgi urush paytida bosib olgan Jo‘lan tepaliklarini qaytarib olishni hohlaydi. Bunda esa bu ikki qo‘shni davlatning Isroilga qarshi keskin kurash olib borayotgan “Hizbulloh” guruhini qo‘llab-quvvatlashlarining sabablari ayon bo‘lmoqda¹.

Bugungi kunda Isroil davlatining ichki siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirsak. Davlat rahbari prezident va Knesset tomonidan 1 marta 7 yilga saylanadi. Hozirda davlat rahbari Shimon Peres. U Knessetda 5ta siyosiy partiyada ishlagan va 2 marta bosh vazir bo‘lgan.

Prezident vakolatlari haqida gapirsak, Prezident Xalqaro munosabatlar yo‘lboshchisi va xorijiy elchilarni akreditatsiyasini qabul qiladi. Prezident Bosh vazirni tayinlaydi, unga ko‘rsatmalar beradi, uning lavozimidan bo‘shatadi. Davlat nazoratchisini Knesset taqdimotiga ko‘ra tayinlaydi. Prezident Oliy Bosh Qo‘mondon. Prezident Amnisiyani e‘lon qiladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Knesset) 1 palatali bo‘lib, 120 a‘zosi partiya ro‘yxatiga kiritilgan millatlar bo‘ylab saylovlarda saylanadi. Hukumatni tashkil qilish uchun Koalisiya tuzish huquqiga ega bo‘lgan partiya boshlig‘i prezident tomonidan tanlanadi. Hech qaysi partiya ko‘p ovoz ololmaganligi sababli Koalisiya tuzilgan. Knessetga saylovlar har 4 yilda bo‘lib o‘tadi.

Siyosiy partiyalar joy olish uchun kamida 2 % ovoz olish kerak. Har bitta Knesset sessiyasi saylov raqamiga qarab belgilanadi. Birinchi Knesset 1949-yilda tuzilgan. Hozirgisi esa 2009-yilda 18-Knesset hisoblanadi. Knesset Quddusdagi Givat Ramda.

Bosh vazir Parlamentda eng ko‘p ovoz va o‘rin olgan siyosiy partiya rahbari bo‘ladi. Hozirda Benyamin Netanyahu – Likud partiyasi rahbari. 2009-yilgi

¹ Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТашГИВ, 2005. – С. 7.

saylovda Kadima siyosiy partiyasi Knessetda 120 oʻrindan 94 tasini oladi, lekin Likud partiyasi katta ahamiyatga ega boʻlganligi sababli hokimiyatga keladi. Knesset vakolatlari. U Davlat nazoratchisini Prezidentga taqdim qiladi. Knesset Isroil Hokimiyatiga ishonchsizlik bildirish huquqiga ega. Knesset Prezidentga qonun asosida impichment eʼlon qilish huquqiga ega. Knesset Rais va uning oʻrinbosarlarini saylaydi. Rais Knesset majlisini boshqaradi. Knessetga berilgan qonun loyihalari va davlat ahamiyatiga molik masalalar Knesset qarori orqali referendumga chiqariladi. Knesset Prezidentga, Bosh vazirga savol bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ular esa 2 hafta ichida Knessetga javob qaytarishga majbur. Davlat nazoratchisi. Davlat nazoratchisi Knesset tomonidan 5 yilga tayinlanadi. Davlat nazoratchisi vakolatlari: Davlat va hukumat muassasalari, oʻz oʻzini boshqaruvchi organlar. Har yili oʻz nazorati natijalarini Knessetga taqdim etadi. Hukumat kotibiyati vazirlar kengashi protokolini tuzadi. Hukumat qarorlari ijrosini kuzatadi. Qabul qilingan qarorlarni OAVlarida koʻrsatilishini taʼminlaydi. Knesset va hukumat oʻrtasidagi munosabatlarni nazorat qilib turadi. Amaldagi hukumat kotibi – Tsvi Gauzer. Sud tizimi, Okrug sudi – Isroilda 6 ta okrugda joylashgan. Ular koʻpincha apelyatsiya ishlarini koʻrib chiqadi. Oliy sud – apelatsiyani koʻrib chiqadi va oliy adolat sudi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, fuqarolar va fuqarosi boʻlmagan shaxslarning davlat qarorlariga qarshi murojaatlarini koʻrib chiqadi Oliy sud sudyalari Knesset rezolyutsiyasi orqali tayinlanadi. Odatda 12 ta sudya ishlaydi, lekin hozirda 14 ta sudya. Sudyalar 70 yoshgacha ishlashi mumkin. Shtab kvartira Quddusda joylashgan. Diniy sudlar orqali Nikoh, Ajrim, Oʻlim ishlari amalga oshiriladi. (yahudiy, musulmon, xristian, druz) Isroil Xalqaro jinoyat sudiga aʼzo emas, buning sababi sud hozirgi xalqaro siyosiy bosim tufayli qaror chiqarishi mumkin.

Asosiy siyosiy partiyalari, Kadima 2005 yil A.Sharon tomonidan tuzilgan. U Likuddan ajralib chiqqan Isroildagi eng katta partiyalardan hisoblanadi. Likud uzoq vaqt davomida kuchli partiya hisoblangan. 1973-yil Menachim Begin tomonidan tuzilgan. Yisrail Beitinu 1999-yil tuzilgan. U ham sobiq Likut aʼzosi

Avigdo Liberman tomonidan tuzilgan, (asosiy g'oyasi Rossiya immigrantrlari uchun yo'l ochish) Isroil mehnat partiyasi 1968-yilda ijtimoiy- demokratik partiya sifatida tuzilgan. Shaspartiyasi 1964-yilda tuzilgan. Bu partiya Yaqin Sharqdagi yahudiylarni qullab-quvvatlovchi diniy xarakterga ega partiya hisoblanadi.

2.3. Isroil ichki siyosatini rivojlanishida Falastin omilining ahamiyati

Yaqin Sharq muammosi hozirgi zamon munosabatlarining eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammo formal jihatdan 50-yillarning boshidan, ya'ni Isroil Davlati va Falastin ozodlik tashkilotining tuzilishi bilan boshlansada, biroq u mavjud global muammolar ichida eng uzoq tarixga borib taqaladigan qarama-qarshilikdir. Bu qarama-qarshilik nafaqat arab dunyosi va yaxudiylar o'rtasidagi qarshilikdir, balkim bu muammo misolida geoiqtisodiy va geostrategik qarama-qarshilik, ya'ni G'arb va Sharq, musulmon dunyosi va xristianlar o'rtasidagi qarshilikni kuzatishimiz mumkindir.

Muammoni negiziga yetish uchun avvalambor uning tarixiga nazar tutmog'imiz lozim, negaki tarixni bilmasdan turib hozirgi kun voqeliklarini tushinib yetish qiyindir. Shu sababli muammonining tarixiy genezisini o'rganish, muammo rivojining asosiy bosqichlari va aktorlari harakatini kuzatish dolzarbdir.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda arab-isroil urushi nomini olgan 5ta yirik qurolli to'qnashuvlar ajralib turadi. Ular 1948-49, 1956, 1967, 1973 va 1982 y.y.da bo'lib o'tdi.

Yaqin Sharq muammosining shu kunlarga qadar davom etishining asosiy sabablaridan biri bu uning siyosiy lashtirilganligidadir. Ikkinchidan Ushbu mintaqa dunyoning geosiyosiy va geostrategik markazlaridan biri bo'lganligi sababli ko'pchilik bu mintaqada tinchlik bo'lishini istashmaydi, negaki mintaqadagi arab

davlatlari shu mintaqada ushlab turiladi. Va oxirgi, uchinchi sabab, Ushbu mintaqada buyuk davlatlarning qarama-qarshilik sahnasi bo'lib qolmoqda.

Ushbu muammoni hal etishning asosiy bug'inlaridan biri bu hanuzgacha tuzilmay kelayotgan Falastin davlatchiligidir. Bu muammoni tahlil qilib Ye. Dmitriev, avvalambor "falastin halkining ajralmas milliy huquqlari tushunchasi ostida nima turganini tushunib yetish kerak. Bu huquqlar qandaydir o'ziga xos milliy cheklangan xarakterga ega emas"dir deydi¹.

Falastin muammosini hal qilish uchun mustakil Falastin davlatini tuzish zaruriyati Falastin xalqi manfaatlariga javob beradi. Lekin hal qilish rejalarining ko'pi asosan Falastin davlatini tuzish haqidagi masalani jimlik bilan chetlab o'tgan².

Hozirgi kunga qadar Yaqin Sharq muammosini hal etish yo'lida qator loyihala ilgari surildi, undan ham ko'proq bitimlar imzolandi, lekin ularning birortasi ham masalani hal etishga olib kelmadi, negaki taklif etilayotgan yondashishlar va hal etish yo'llari siyosiyashtirilganligi va asosan bir tomonlama ekanligi bilan xarakterlanadi.

Isroil davlati tashkil topishi bilanoq o'z milliy xavfsizligini ta'minlash uchun doimiy ravishda kurashishi va qo'shni arab mamlakatlaridan kelishi mumkin bo'lgan zarbalarni qaytarishga tayyor turishiga majbur bo'lganligi bevosita uning ichki va tashqi siyosiy strategiyasiga ta'sir qilgan desa bo'ladi. Isroilning ilk mustaqillik davridagi hukumati a'zolari bu davlatning yashab ketishi uchun katta harbiy salohiyatga ega bo'lishi kerakligini yaxshi tushunishar edi.

Isroil harbiy doktrinasi yahudiy armiyasini harbiy tayyorgarligini doimoshay holda turishiga zamin yaratib bergan edi. Isroil armiyasi shu bois 24 soat davomida aksariyat rezervdagi kuchlarini urushga chiqarish salohiyatiga ega edi.

¹ Дмитриев Е. Палестинская трагедия. – М.: Междунар. отношения, 1986. – С.24.

² Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТашГИВ, 2005. - С. 14.

Bu narsa esa o‘z navbatida bu davlatning strategik jihatdan kamchiliklarini qoplashga yordam berardi.

Bu kamchiliklar qatoriga, Isroilning kichik hududga ega bo‘lganligi va uzun chegaralari, doimiy armiyadagi harbiylarning sonini kamligini kiritish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgan rezervdagi kuchlarni olib chiqish imkoniyati Isroilning urush vaqtlarida tezkor ravishda armiyasiga yordamga yetib borishini ta‘minlashi ko‘zda tutilgan edi.

Isroil davlati strategik doktrinasining boshqa muhim jihatlarini sanab o‘tadigan bo‘lsak, bu tizimning samaradorligini tushunishimiz mumkin. Bu jihatlar sirasiga quyidagilar kiradi:¹

- Harbiy harakatlarning hujumkorlik xarakteriga ega ekanligi;
- Harbiy harakatlarning raqib hududiga ko‘chirib o‘tkazish va iloji boricha, mojaroni o‘z chegaralaridan uzoqlashtirishga qaratilishi;
- Bir frontdan boshqa frontga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan olib o‘tish;
- Asosiy xavf kelib turgan joyga maksimum kuchlarni yo‘naltirish;
- Harbiy havo kuchlarini raqib maydonidagi yerdagi kuchlariga qarshi va raqibning havo kuchlariga qarshi ishlatish orqali askarlar orasidan yo‘qotishlarini kamaytirish;
- Ma‘lum siyosiy vaziyatlarga qarab preventiv zarbalarni berish;
- Bundan tashqari, jahon va mahalliy harbiy sanoatlarning eng so‘nggi yutuqlaridan samarali foydalanish orqali maqsadlarga yerishish.

1973 yilda boshlangan arab-isroil urushi yahudiy hukumatiga katta muammolarni uyg‘otdi desak adashmaymiz. 1973 yilning 6 oktyabridan 24 oktyabrigacha davom etgan ushbu harbiy harakatlarning boshlang‘ich qismida arablarning birgalikdagi harakatlari Isroil qo‘shinlarini ortga chekinishga majbur qildi. Misrning Suvaysh kanalidan o‘tib, Isroil armiyasining himoyasini yorib

¹ Шалом, З. Проблемы безопасности и формирование оборонной политики Израиля. Курс «Становление израильской демократии. Первое десятилетие». книга 3. //Открытый университет. Тель-Авив. 2001. – С.148.

o'tishi va Suriya qo'shinlarining Jo'lon tepaliklaridan kirib kelishlari bilan bir vaqtning o'zida amalga oshirilganligi yahudiylar harbiy kuchlarini shoshirib qo'ydi. Lekin Isroil armiyasining rezervdagi kuchlari urushga kiritilganidan so'ng vaziyat tubdan o'zgarib, endi vaziyat arablarning ortga chekinishlariga majbur etdi.

Isroilliklar Suvaysh kanalining g'arbiy qirg'og'iga o'tib bo'lishgan vaqtlarida va Damashq shahriga 40 kilometr qolganida AQSh va Sovet Ittifoqining talablari bilan BMTda 338-sonli rezolyusiya qabul qilindi va ushbu bosim tufayli Isroil armiyasi urushni to'xtatishga majbur bo'ldi. Bu rezolyusiya bo'yicha urushayotgan taraflarning o't ochishni to'xtatishlari va davlatlar o'rtasidagi chegaralar bo'ylab BMT tinchlikni saqlash kuchlarining joylashtirilishi ko'zda tutilgan edi.

Ikki qutbli dunyo tizimi tugatilgandan so'ng, jahon siyosatini faqatgina AQSh boshqara boshladi va u Yaqin Sharq mintaqasiga bevosita ta'sir eta oluvchi yagona yirik kuchga aylandi. Buning isbotini 1991 yilgi Fors ko'rfazi urushida ham ko'rishimiz mumkin bo'ldi.

1990 yilda Iroqning Quvayt hududiga bostirib kirishi bilan AQSh Saddam Husaynga qarshi kurashini boshlab yubordi. Bu urush Isroil uchun juda ham muhim edi, chunki yahudiylar davlatiga eng xavfli raqib sifatida shu davrda Iroq gavdalangan edi. Isroilning sharqida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan Iroq boshchiligidagi koalisiyaning paydo bo'lish imkoniyati aynan 1991 yilgi Fors ko'rfazi urushidan so'ng yo'qqa chiqdi desak adashmaymiz.

1990 yillarning boshlarida Yaqin Sharq mintaqasida nisbatan barqarorlik davri hukm sura boshladi. AQShning bevosita ishtirokida arab-isroil mojarosida ham ijobiy siljishlar ko'zga tashlana boshladi.

Bu vaqtga kelib, Isroil hukumati a'zolari orasida Falastin bilan kelishuvga kelgan holda unga avtonomiya maqomini berish tarafdorlari topila boshlandi. Bularning orasida Isroil Bosh vaziri I. Rabin ham bor edi. Yuzaga kelgan vaziyatda uning fikricha, G'azo sektori va Iordan daryosining o'ng qirg'og'ini Falastin Ozodlik tashkilotiga berilishi u yerdagi ekstremistlarning mavqeini pasayishiga

olib kelishi kerak edi va bu vaziyatni mahalliy qonunni saqlash organlari qo‘lga olishlari mumkin edi.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun qulay vaziyat 1993 yilning o‘rtalarida vujudga keldi. Aynan shu vaqtda Oslo jarayoni nomini olgan muzokaralar qizg‘in yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning 20 avgustida Sh.Peres boshchiligidagi Isroil delegatsiyasi va Abu-Alla boshchiligidagi FOT delegatsiyasi o‘rtasida Norvegiya tashqi ishlar vaziri guvohligida Oslo shahrida o‘tkazilgan hufyona uchrashuvda muhim kelishuvga kelindi. Isroil va FOT bir-birlarini tan olishlari va Falastin Ozodligi tashkilotining xartiyasidagi "Isroilni yo‘q qilish" haqidagi bandini olib tashlashlariga kelishib olindi.¹

Bundan tashqari tomonlar bir-birlariga nisbatan kuch ishlatmaslik va Isroil tomonining o‘z qamoqlarida davlat tuzumiga qarshi qonunlarni buzgan falastinliklarni ozod etishga ham kelishib olinganligi e‘lon qilindi. G‘azo sektori va Ierixonda o‘z ichki ishlarida mustaqil, lekin mudofaa va boshqa davlatlar bilan munosabatga kirisha olmaydigan siyosiy tuzilmani barpo etilishiga ham kelishib olindi. Avtonomiyani 24 a‘zodan iborat va xalq tomonidan saylanadigan kollegiya boshqarishi ko‘zda tutildi. Kelishuvga binoan, avtonomiya hududlaridan Isroil qurolli kuchlari olib chiqib ketilishi kerak edi. Isroil o‘z navbatida, avtonomiya hududida qolib ketayotgan yahudiy aholilarning xavfsizligini o‘zi nazorat qilishi, Isroil va ular o‘rtasidagi aloqalarni boshqarishi va avtonomiya hududida terroristik hodisalarni o‘zi nazorat qilish huquqini saqlab qoldi².

Tomonlar bundan tashqari Isroil va avtonomiya o‘rtasidagi aloqalarni kuzatib boruvchi komissiya tuzilishi, iqtisodiy aloqalarning bir qolipga solinishi, bojxona va chegaralar ustidan nazorat o‘rnatilishi va qolaversa, G‘azo sektori va Ierixon o‘rtasidagi aloqalarni ham boshqarilishi haqida kelishib olishdi.

Yuqoridagi barcha kelishuvlar bir dokumentga birlashtirilib, tantanali muhitda Isroil bosh vaziri I. Rabin, FOT rahbari Yo. Arofat va AQSh prezidenti B.

¹ Spiegel, S.L. -After the Gulf War: the Arab World and the Peace Process. //L. Rienner Publishers. 1994. P-192.

² Cleveland, W.L. -A Peace So Near, A Peace So Far: Israeli-Palestinian Relations since the Gulf War. in A History of the Modern Middle East. P-471-472.

Klinton tomonidan 1993 yilning 13 sentabrida Vashingtondagi Oq Uy hovlisida imzolandi.

1994 yilda yesa Isroil uchun yana bir muhim kelishuv amalga oshirildi. Bu Iordaniya bilan tuzilgan tinchlik shartnomasi edi. Aynan Iordaniya Isroil bilan shunday kelishuvga kelgan ikkinchi arab davlatiga aylandi. Davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilishi bilan mintaqada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yirik mojaroning kelajagi yo'qdek ko'rina boshladi. Chunki Isroilni o'rab turgan to'rt davlatdan ikkitasi u bilan tinchlik shartnomasini imzolab ulgurdi.

Shu davr mobaynida isroillik diplomatlarning o'zlarining yana bir qo'shnisi hisoblangan Suriya bilan tinchlik shartnomasini o'rnatish borasidagi urinishlariga katta ahamiyat qaratildi. Lekin 1990 yillarning oxirlariga kelib tuzilishi rejalashtirilgan ushbu shartnomasi imzolanmay qolib ketdi.

AQShda sodir bo'lgan 11 sentyabr voqealari va Djorj Bush ma'muriyatining jahon terrorchiligiga qarshi boshlagan urushi Yaqin Sharq mintaqasiga ham bevosita kirib keldi. 2003 yilning martida boshlangan Iroqqa va Saddam Husaynga qarshi boshlangan urush Isroilning milliy xavfsizligi masalalariga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Bush ma'muriyatining aynan Iroqqa qarshi jangovar operatsiyalarning boshlashi AQSh xavfsizligidan ko'ra ko'proq Isroil davlati barqarorligini ta'minlash harakatlari hisoblanadi. Iroqda "ommaviy qirg'in qurollari" mavjud bo'lgan taqdirda ham, bu qurollarni faqatgina o'z mintaqasida eng yirik dushmani hisoblangan Isroilga qarshi ishlatishi mumkin edi, xolos.

Shu o'rinda, Iroqqa qarshi harakatlarning boshlanishiga olti oy qolganida AQSh prezidenti Bushning Senatning quyi palatasi a'zolari bilan o'tkazgan uchrashuvida aytgan gaplarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Qonun chiqaruvchilar bilan uchrashuvida Bush quyidagilarni aytib o'tadi: "Terrorizmga qarshi urush yaxshi ketmoqda, lekin AQSh yaqin orada bundan-da kattaroq xavf bilan kurashishi lozim. Albatta, eng katta xavf bu - Saddam Husayn

va uning ommaviy qirg'in qurollari. U Isroilni yo'q qilib yuborish imkoniyatiga ega va yirik xalqaro mojaroni keltirib chiqarishi mumkin¹.

Isroil uchun Iroq xavfi tugatilgandan keyin, endi hozirgi kunda yangi hokimiyat tepasiga kelgan va Isroilga nisbatan keskin fikrlari bilan jahon ommasini o'ziga jalb qilgan Eron prezidenti Mahmud Ahmadenijod yahudiylar hukumatining bosh og'riqlariga sabab bo'lmoqda.

Isroil AQSh hukumati bilan birgalikda regionda yadroviy davlatning paydo bo'lishiga qarshi harakatlarni jadal sur'atlarda amalga oshirmoqda. Eron bu qurolni qo'lga kiritishi bilan uni Isroilga qarshi ishlatishga harakat qiladi degan hayqiqishlar Isroil hukumati a'zolari ichida mavjud.

Shu o'rinda qiziq bir faktni aytib o'tish lozim, Isroil davlati Tashqi ishlar vazirligining rasmiy saytining bosh sahifasida "Eron xavfi" deb nomlangan alohida bo'lim mavjud². Unda Eronning yadroviy dasturi va uning keltirib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlari, Isroil xavfi to'la yoritib berilgan. Buning o'zi ham yahudiy davlatining bu xodisalarga befarq emasligini va boshqalarni ham Eronni to'xtatishga chaqirayotganligidan dalolat bera oladi. 1995 yilda "Tashqi ishlar bo'yicha Chikago kengashi"ning o'tkazgan ommaviy so'rovlarining natijasiga ko'ra, AQSh fuqarolarining 64 foizi Amerikaning "hayotiy manfaatlari"ni Isroil bilan bog'liq deb hisoblashgan. Xuddi shunday so'rov hokimiyat a'zolari o'rtasida o'tkazilganda esa bu ko'rsatkich 84 foizni tashkil qildi³.

Isroilda hukumat tepasiga Benyamin Netanyahu kelishi va uning jahon ommasida va Isroil hukumatining ichida ham ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lgan siyosatiga qaramay, AQSh aholisining ko'pchilik qismi Isroilni qo'llab-quvvatlashda davom etayotganligini 1998 yilgi "The New York Times" gazetasining o'tkazgan so'rovlari ham ko'rsatib berdi. Bu so'rovlarga asosan, Amerika Qo'shma Shtatlari aholisining 57 foiz aholisi Isroil haqida ijobiy fikrda

¹ Woodward, B. -Plan of Attack. //Simon & Schuster. 2004. P-186-188.

² <http://www.mfa.gov.il> da keltirilgan.

³ F. Riley, J. (ed.) -American Public Opinion and U.S. Foreign Policy. //Chicago Council on Foreign Relations. 1995. P-20 and 26.

ekanligi va atigi 11 foizi Falastin Ozodlik Tashkilotiga nisbatan ijobiy munosabat bildirishganligi ma'lum bo'ldi¹.

Buyuk Britaniya mandati ostidagi Falastin hududlarining bo'lish rejalaridan va birinchi arab-isroil urushining boshlanishidan avval ham Xalqaro Sionistlar tashkilotining ko'plab G'arbiy davlatlar va Sovet Ittifoqi va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan diplomatik munosabatlari mavjud edi. Bu davlatlarning aksariyati esa o'z navbatida Isroil hududiga yahudiylarning repatriatsiya qilinishini qo'llab-quvvatlashdan tashqari, Isroilning mustaqilligini e'lon qilinishida ham siyosiy ko'mak ko'rsatdilar.

14 may 1948 yilda Isroil AQSh, Sovet Ittifoqi va ko'plab Yevropa davlatlari tomonidan tan olindi, bu voqeadan so'ng esa Isroilning diplomatik vakolatxonalari dunyoning ko'plab mamlakatlarida ochildi.

15 may 1948 yilda arab davlatlarining o'z mustaqilligini e'lon qilgan Isroil davlati hududiga bostirib kirishlari ularning mag'lubiyati bilan tugaydi. BMTning bevosita ishtiroki bilan o't ochish to'xtatildi va o't ochishni to'xtatish chiziqlari amalda BMT va arab davlatlari tomonidan Isroilning davlat chegaralari sifatida tan olinadi. Isroilning 1949 yil 11 mayda BMT a'zoligiga qabul qilinishi esa yahudiylar davlati oldida ulkan imkoniyatlarni ochib berdi va ushbu davlatning turli xalqaro tashkilotlar huzurida hamkorlik qilishi uchun yo'l ochib berdi.

Isroil davlati tashqi siyosatida asosiy o'rinlardan birida arab davlatlari bilan tinchlik aloqalarini o'rnatish turgan bo'lsa-da, eng asosiy e'tibor davlat chegaralarini mustahkamlash va mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida g'arbiy davlatlar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan edi. Arab davlatlari esa Isroil bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarga kirishishdan bosh tortgan holda, Isroilning 1947 yilgi chegaralarga qaytishini talab qilishar edi. BMT tomonidan arab va yahudiylarga bo'lib berilgan yerlarning uchdan ikkisini Isroil birinchi arab-isroil

¹ The New York Times. April 26. 1998.

urushidan so‘ng egallab olgan edi. Bundan tashqari, arab davlatlarining yana bir asosiy talablaridan biri urush vaqtida o‘z uylarini tark yetgan arab qochoqlarining qaytishini ta‘minlashdan iborat edi.

Isroil yuqoridagi talablarni qondirishdan bosh tortib, o‘zlarining qarorlarini shunday asoslab berdilar: 1947 yilgi Falastin hududini ikkiga bo‘lib berish rejasi arablarning yahudiylar bilan tinchlik va hamkorlikda yashashlarini ko‘zda tutgan edi, arablarning Isroil mustaqilligini e‘lon qilishidan so‘ng urushga kirganliklari bu rejalaridan chekinishga majbur qilgan holda, o‘t ochishni to‘xtatish chiziqlarining Isroil chegaralari bo‘lishiga olib keldi.

1949 yilning noyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi Quddus shahrining xalqaro hududga aylantirish rejasini ovozga qo‘yadi va bu rejaga Isroil va Iordaniya qarshi chiqqanidan so‘ng, Quddusning kelajagi ochiqlicha qolib ketadi. Isroil esa o‘z navbatida bu uch muqaddas dinning qadamjolari joylashgan shaharni o‘zining poytaxti qilib olishga harakat qila boshladi.

1949 yilning 13 dekabrda Isroil hukumati boshlig‘i D. Ben-Gurion Knessetdagi nutqida hokimiyat idoralarining Tel-Avivdan Quddus shahriga ko‘chirilishini e‘lon qildi, bu esa o‘z navbatida bu shaharning Isroilning poytaxti qilinganidan dalolat edi. Bunga javoban, Transiordaniya podshohi Abdulloh ibn Husayn Quddusning sharqiy qismini o‘z hududiga qo‘shib oladi. Buyuk Britaniya esa bu ikki davlatning qo‘shib olgan yerlarini tan olganligini e‘lon qildi¹.

BMTdagi arab qochoqlarining Isroilga qaytarilishi masalasini ko‘rib chiqish vaqtida, Isroil bu masalaning faqatgina bitta yechimi borligini ta‘kidlab keldi. Isroilning tutgan o‘rni va yechimi shundan iborat edi: arab qochoqlarini Isroilga qaytib kelishidan ko‘ra, ularning hozirgi yashab turgan arab davlatlarida o‘troqlashishlari lozim, xuddi Isroil arab davlatlaridan kelgan yahudiylarni qabul qilgani singari, arablar ham ularni qabul qilmog‘lari kerak.

¹ Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТашГИВ, 2005. - С. 10.

1967 yilgi urush natijalariga bag'ishlangan Jeyms Restonning "Tel-Aviv: Isroil strategiyasi" nomli maqolasida u shunday deydi: "Isroilning hozirgi strategiyasi juda oddiy. Arab kuchlarini tor-mor etgan holda qancha ko'p bo'lsa shuncha yerni egallab olib, keyin tinchlik uchun savdolashish kerak"¹.

Maqolasining davomida Reston quyidagi fikrlarni bildiradi: "Isroildagi siyosatchilar vaziyatga real baho bergan holda, arablar bilan tinchlik uchun savdolashishning iloji yo'qligini tushunishadi, lekin ularning asosiy maqsadi 20 yildan beri davom etayotgan urush holatiga barham berishdan iboratdir. Bu maqsadlardan kelib chiqib, uchta narsaning amalga oshirilishi lozimligi tushuniladi:

1. Isroilga barcha suveren davlatlar kabi Suvaysh kanalidan erkin foydalanish huquqi berilishi kerak.

2. Isroil bundan tashqari, Tiran va Aqaba bo'g'ozlaridan ham erkin foydalanishi lozim. Buning uchun, Misrning qarori muhim, chunki Isroil bu bo'g'ozlardan o'tishni o'zi qo'riqlashi mumkin yoki bu ishni amalga oshirish Misrning zimmasiga tushmoqligi kerak.

3. Keyingi muhim masala bu Isroilning territorial maqsadlarining qanchalik kengligidir. Bu o'rinda Quddus shahrining kelajagi ahamiyatli hisoblanadi. Chunki Isroil sobiq Mudofaa vaziri M. Dayanning 1967 yil 8 iyunda bergan intervyusida shunday deydi: "Biz endi Quddus bilan hech qachon bo'linmaydigan eng muqaddas qadamjolarini qaytardik"². Ushbu so'zlar negizida Isroilning egallangan yerlarni xususan, Quddusning sharqiy qismini qaytarmasligini tushunsa bo'ladi.

1993 yilning 20 avgustida Sh.Peres boshchiligidagi Isroil delegatsiyasi va Abu-Alla boshchiligidagi FOT delegatsiyasi o'rtasida Norvegiya tashqi ishlar vaziri guvohligida Oslo shahrida o'tkazilgan hufyona uchrashuvda muhim kelishuvga kelindi. Isroil va FOT bir-birlarini tan olishlari va Falastin Ozodligi

¹ Reston, J. -Tel-Aviv: The Israeli Strategy. //The New York Times. 9.06.1967.

² Reston, J. -Tel-Aviv: The Israeli Strategy. //The New York Times. 9.06.1967.

tashkilotining xartiyasidagi "Isroilni yo'q qilish" haqidagi bandini olib tashlashlariga kelishib olindi. Bundan tashqari tomonlar bir-birlariga nisbatan kuch ishlatmaslik va Isroil tomoni o'z qamoqlarida davlat tuzumiga qarshi qonunlarni buzgan falastinliklarni ozod etishga ham kelishib olinganligi e'lon qilindi¹.

Xulosa sifatida shularni aytish mumkinki, Isroilning arab va musulmon davlatlari bilan to'liq diplomatik va boshqa aloqalarini o'rnatishi uchun u yeng avvalo, falastinliklar bilan muammosini ijobiy hal qilishi ko'zda tutiladi. Falastin-Isroil mojarosini hal qilish uchun hozirda yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyat qo'l kelishi ham mumkin. 2003 yilda AQShning Iroqni bosib olishi va bu qudratli davlatning harbiy-strategik bazalarining Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlaridan tortib, Suriya chegaralarigacha joylashganligi va Forz ko'rfazini egallab turganliklari bevosita AQSh hukumatining homiyligi va qattiq say-harakatlari orqali bu muammoni hal qilish borasidagi masalalarni bosqichma-bosqich yechish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Lekin buning uchun Isroil hukumati va Falastin avtonomiyasi boshliqlari ham kompromisga borish uchun ma'lum qadamlarni bosishlari va tinchlikni qo'lga kiritishga bo'lgan intilishlarini namoyon qilishlari lozim bo'ladi. Eng avvalo, ikkala hokimiyat vakillari bir-birlarini muzokaralarda teng huquqlarga ega ekanliklarini tan olishlari kerak. Falastinning o'zida FATX va XAMAS vakillarining bir yoqadan bosh chiqarishlari talab qilinadi. Isroil hukumati esa Falastinda bo'lib o'tgan demokratik saylovlarda g'alaba qozongan hokimiyat vakillari bilan muzokaralar o'tkazish uchun tayyor turishi ham muhim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kelajakda Isroil davlatining barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi bosh omillarni sanab o'tishga harakat qilaylik. Shu o'rinda, bu omillarni ikkiga ijobiy va salbiy omillarga ajratib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Ijobiy omillar:

¹ Steven L. Spiegel, S.L. -After the Gulf War: the Arab World and the Peace Process. in The Arab-Israeli Search for Peace. //L. Rienner Publishers: Boulder, CO., 1994. P-192.

- Isroil aholisining davlat siyosiy hayotida aktiv qatnashishi va muammolarga befarq bo‘lmasligi;

- Davlatning demokratik tuzumi;
- AQSh tomonidan Isroilni qo‘llab-quvvatlash siyosatining yuritilishi;
- Qo‘shni arab davlatlarining past rivojlanish darajalari;
- Kommunistik blokning tarqalib ketganligi;
- Chet el davlatlaridagi yahudiy jamiyatlarining Isroilni qo‘llab-quvvatlashi;

- Isroil mudofaa kuchlarining zamonaviy harbiy qurollar bilan ta’minlanganligi;

- Isroil harbiylarining yaxshi tayyorgarlik ko‘rganliklari;
- Rivojlangan harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarish sanoatining mavjudligi;

- Yadroviy qurolga egalik qilishi; (rasman, Isroil yadro qurollariga ega emas, lekin ba’zi bir ma’lumotlarga ko‘ra, Isroil 100 dan tortib, 500gacha yadroviy zaryadlarga ega va albatta, bu qurollarni mo‘ljalga eltishi mumkin bo‘lgan F-16, F-4E "Fantom" va A-4N "Skay Xavk" nomli AQShda ishlab chiqarilgan harbiy samolyotlarga ham ega.)¹

- Arab davlatlarining birdam emasliklari va ular o‘rtasida turli kelishmovchiliklarning mavjudligi;

Salbiy omillar:

- Dunyoda antisemitizmning mavjudligi;
- BMTning Isroilga nisbatan qabul qilgan rezolyusiyalari;
- Aksariyat musulmon davlatlarining Isroilga nisbatan qarshi siyosatlarini;
- Arab davlatlarining yirik neft zahiralarga ega ekanliklari;

¹ Эпштейн, А.Д. Инфраструктура обеспечения национальной безопасности в современном Израиле. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2005/30-11-05a.htm>

- Demografik omillar-Isroil aholisining qo'shni arab mamlakatlari aholisiga nisbatan kamsonliligi;
- Ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi va Isroilga qarshi ishlatilishi ehtimolining yuqoriligi;
- Isroil hududining chetdan bo'ladigan zarbalarga dosh bera olmasligi;
- Qo'shni arab davlatlarida harbiy texnologiyalarning tarqalishi;
- Musulmonlar uchun muqaddas sanalgan qadamjolarini Isroil hududida joylashganligi; (Quddus shahrida)
- Arab qochoqlari omili;
- Suv bilan ta'minlanish muammosi;
- Falastin hududida joylashgan yahudiy yashash joylarini himoya qilish masalasi;

XULOSA

Isroil davlati strategiyasini o'rganishda xalqaro munosabatlar tizimida bu davlatning tutgan o'rnini hisobga olish lozim. Shundan kelib chiqib, ushbu malakaviy ishni yozishda asosan Isroil davlatining rasmiy ma'lumot manbalari, taniqli tadqiqotchilarning ishlari, xalqaro ilmiy doiralarda o'z obro'siga ega bo'lgan jurnal va gazetalar, rasmiy va keng ommaga mo'ljallangan internet sahifalari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Isroil davlati strategiyasida ichki siyosatini xususiyatlarini o'rganish davomida quyidagi xulosalarga keldim:

Birinchidan, Isroil davlatining Yaqin Sharq regionida va qolaversa, jahon geosiyosiy xaritasida joylashgan o'rnini belgilab beruvchi omillar bir qanchani tashkil etadi. Ularning aksariyati yahudiy millati va uning tarixi bilan bevosita bog'langan desak adashmaymiz. Yahudiy millatining Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng, o'z uylari sifatida Falastin hududlariga borib joylashishlari va bunga Buyuk Britaniya va boshqa yetakchi davlatlarning mone'lik qilmaganliklari va ularning o'z davlatlarini barpo etishlariga ko'maklashganliklari Yaqin Sharq mintaqasini zamonaviy tarixning eng mojaroli hududlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

O'zlariga dushman sifatida ko'radigan arab mamlakatlari bilan o'ralgan va strategik jihatdan juda zaif hududga ega bo'lganliklari ham yahudiy davlatining o'z mustaqilligini saqlab qolishiga to'sqinlik qila olmadi. Bunga esa qator omillar sabab bo'ldi deya olamiz.

Ularning eng asosiylarini yuqorida sanab o'tganimizdek, quyidagilar tashkil qiladi:

- Isroil harbiy infratuzilmasining juda puxta tashkil qilinganligi, isroillik aholining harbiy tayyorgaligining yuqoriligi;

- Avvaliga Fransiya, keyinchalik AQSh siymosida o'zining eng yaqin strategik hamkorligini mavjudligi va bevosita bu davlatlarning Isroil hukumatiga siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy va harbiy ko'maklari;
- Chet el davlatlarida joylashgan yahudiy jamiyatlarining ham moddiy va siyosiy qo'llab-quvvatlashlari va boshqalar.

Isroil Yaqin Sharq mintaqasi va O'rtaer dengizi hududidagi muhim davlatga aylandi. Shuni aytish mumkinki kerak vaqtda, Isroil NATOning janubiy qanotini himoya qila oladigan strategik baza vazifasini bajara oladi, janubiy va sharqiy Osiyoga eltuvchi asosiy yo'llarni to'sib qo'ya oladi (misol uchun Suvaysh kanalini), Isroil hududi atrofida jahon neft resurslarining uchdan biriga yaqini joylashganligi ham bu davlatning ahamiyatini yanada oshirib yuboradi.

Yuqoridagilardan tashqari, Isroilning zaif nuqtalari ham bu mamlakatning geosiyosiy joylashuviga ta'sir etishi mumkin. Bularni orasida Isroil hududining kichikligidan tortib, aholisining kamsonligigi keltirish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, Isroil ichki siyosiy strategiyasiga ta'sir qiluvchi bosh omillarni o'rgangan holda quyidagilarni keltirib o'tish mumkin. Shu o'rinda, bu omillarni ikkiga ijobiy va salbiy omillarga ajratib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Ijobiy omillar:

- Isroil aholisining davlat siyosiy hayotida aktiv qatnashishi va muammolarga befarq bo'lmasligi;
- Davlatning demokratik tuzumi;
- AQSh tomonidan Isroilni qo'llab-quvvatlash siyosatining yuritilishi;
- Qo'shni arab davlatlarining past rivojlanish darajalari;
- Kommunistik blokning tarqalib ketganligi;
- Chet el davlatlaridagi yahudiy jamoalarining Isroilni qo'llab-quvvatlashi;
- Isroil mudofaa kuchlarining zamonaviy harbiy qurollar bilan ta'minlanganligi;

- Isroil harbiylarining yaxshi tayyorgarlik ko'rganliklari;
- Rivojlangan harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarish sanoatining mavjudligi;
- Yadroviy qurolga egalik qilishi;
- Arab davlatlarining birdam emasliklari va ular o'rtasida turli kelishmovchiliklarning mavjudligi;

Salbiy omillar:

- Dunyoda antisemitizmning mavjudligi;
- BMTning Isroilga nisbatan qabul qilgan rezolyusiyalari;
- Aksariyat musulmon davlatlarining Isroilga nisbatan qarshi siyosatlarini;
- Arab davlatlarining yirik neft zahiralariga ega ekanliklari;
- Demografik omillar-Isroil aholisining qo'shni arab mamlakatlari aholisiga nisbatan kamsonliligi;
- Ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi va Isroilga qarshi ishlatilishi ehtimolining yuqoriligi;
- Isroil hududining chetdan bo'ladigan zarbalarga dosh bera olmasligi;
- Qo'shni arab davlatlarida harbiy texnologiyalarning tarqalishi;
- Musulmonlar uchun muqaddas sanalgan qadamjolarini Isroil hududida joylashganligi; (Quddus shahrida)
- Arab qochoqlari omili;
- Suv bilan ta'minlanish muammosi;
- Falastin hududida joylashgan yahudiy yashash joylarini himoya qilish masalasi;

Uchinchidan, arab-isroil mojarosining hal qilinishi istiqbollari va Isroil davlatining musulmon mamlakatlari bilan aloqalari darajasini quyidagilar orqali belgilab olish mumkin. Isroilning arab va musulmon davlatlari bilan to'liq diplomatik va boshqa aloqalarini o'rnatishi uchun u eng avvalo, falastinliklar bilan muammosini ijobiy hal qilishi ko'zda tutiladi. Biroq, so'nggi paytlarda Yaqin

Sharq va Shimoliy Afrikada yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlar mintaqadagi vaziyatni yanada murakkablashtiradi.

Arab-Isroil nizolarini hal etish uchun Isroil hukumati va Falastin avtonomiyasi boshliqlari ham kompromissga borish uchun ma'lum qadamlarni bosishlari va tinchlikni qo'lga kiritishga bo'lgan intilishlarini namoyon qilishlari lozim bo'ladi. Eng avvalo, ikkala hokimiyat vakillari bir-birlarini muzokaralarda teng huquqlarga ekanliklarini tan olishlari kerak. Falastinning o'zida FATX va XAMAS vakillarining bir yoqadan bosh chiqarishlari talab qilinadi. Isroil hukumati esa Falastinda bo'lib o'tgan demokratik saylovlarda g'alaba qozongan hokimiyat vakillari bilan muzokaralar o'tkazish uchun tayyor turishlari ham muhim.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi va Isroil davlati o'rtasidagi aloqalarni ijobiy baholasa bo'ladi. Ikki tomonlama do'stlik, birodarlik munosabatlarining bugungi holatini yuqori baholagan holda, ikki davlatlarimiz o'rtasidagi savdo, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarimizni mamlakatlarimizning imkoniyatlaridan kelib chiqib, yanada rivojlantirish mumkinligini aytib o'tish lozim.

O'zbekiston davlatining boy iqtisodiy imkoniyatlari, inson resurslari va tabiiy boyliklarining ko'pligini inobatga olib, Isroil davlati bilan mamlakatimiz o'rtasidagi savdo aylanmasining miqdori yillar davomida past ko'rsatkichda davom etmoqda.

Shunga qaramay, Isroilning sog'liqni saqlash, qishloq ho'jaligi va tabiiy resurslarni qazib olish sohalaridagi O'zbekiston bilan hamkorligini yaxshi yo'lga qo'yilgan deya olamiz.

Davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarimizning hozirgi holatini ham ijobiy baholasa bo'ladi. O'zbekistonlik ko'plab san'atkorlar Isroilga gastrollarini uyushtiradilar. Isroillik san'at ustalarining ko'plab ko'rgazmalari mamlakatimiz muzeylarida namoyish etiladi. Yurtimizda yahudiy milliy markazining faoliyati uchun hamma sharoitlar yo'lga qo'yilgan. O'zbekistondan Isroilga mustaqillik

yillarida ko'chib borgan yahudiy millati vakillari doimo o'zlari uchun qadrdon bo'lib qolgan diyorlari bilan aloqalarini saqlab qolishmoqda va ikki tomonlama munosabatlarimizning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar deya olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

1.1 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари . – Т .: Ўзбекистон, 1997. – 326- б.

1.2. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. Т.: Ўзбекистон, 1998. 326 бет.

1.3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: «Ўзбекистон», 1999.- 367 б.

1.4. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий ироламызга боғлиқ. 12-жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2004.

1.5. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2005.

1.6. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари энг – олий қадрият. 14-жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2007.

1.7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 178 б.

1.8. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

1.9. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80 б.

1.10. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанамиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 48 б.

2. Me`yoriy-huquqiy hujjatlar:

2.11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, - Т.: Адолат, 2005. бет –

3. Kitoblar, o`quv qo`llanmalar, darsliklar va monografiyalar:

- 3.12. Глущенко Е.А. Герои империи. Портреты российских колониальных деятелей. – М.: «XXI век-Согласие», 2002. – 464 с.
- 3.13. Гендерные проблемы переходных обществ. / Сост. и отв. ред. Крылова Н.Л. и Ксенофонта Н.А. – М.: 2003. – 238 с.
- 3.14. Иерархия и власть в истории цивилизаций. Тезисы докладов четвертой международной конференции. Москва, 13-16 июня 2006 г. - М.: 2006.
- 3.15. Ильинский И.П., Энтин Л.М. Политические системы современности. (Очерки)/ Отв. ред. Ф.М. Бурлацкий, В.Е. Чиркин. - М.: Наука, 1978. - 253 с. // Советское государство и право. - М.: Наука, 1979, № 9. - С. 147-149.
- 3.16. Мунавваров З.И. Дунёвий давлат ва дин. Кўнгилдаги бузилиш. – Т.: ТошДТУ нашриёти, 1998. – 50 б.
- 3.17. Мунавваров З.И. Уммон Султонлиги: тарих, иқтисод, сиёсат. – Т.: Фан, 1994. – 54 б.
- 3.18. Мунавваров З.И. Ўзбекистон ва Араб дунёси // Иқтисод ва ҳисобот. – 1995. – № 4. – Б. 15-19.
- 3.19. Мунавваров З.И., Шнайдер-Детерс В. Муқаддима // Ислом ва дунёвий давлат. – Т.: Имом ал-Бухорий жамғармаси, Ф.Эберт номидаги жамғарма, 2003. – Б. 11–12.
- 3.20. Мухамедов Ҳ. Ислом ва давлат назарияси муаммолари. – Т.: Адолат, 1999. – 38 б.

- 3.21. Раҳматов О. Огоҳлик – муқаддас бурч. – Т.: Мовароуннаҳр, 2000. – 79 б.
- 3.22. Пахрутдинов Ш. Таҳдид – ҳалокатли куч. Мақола ва маърузалар тўплами. – Т.: Академия нашриёти, 2001. – 301 б.
- 3.23. Прозоров С. Исломда олий ҳокимият масаласи // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат (Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Тошкент, 2003. – Б. 31-34.
- 3.24. Ғафуров С.М. Форс кўрфази минтақаси: халқаро алоқалар, стратегия, ҳавфсизлик ва мудофаа муаммолари // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2001. – Б. 80-86.
- 3.25. Ҳасанов А. Илк ислом жамияти: динийликдан дунёвийликка ўтиш // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат (халқаро анжуман тезислари). – Т.: Имом Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 26-30.
- 3.26. Каминский С.А. Институт монархии в странах Арабского Востока. – М.: Восточная литература, 1981. – 152 б.
- 3.27. Комар В. Идеология современного исламизма и Запад // Россия и мусульманский мир. – М.: ИНИОН РАН, 2004. – Б. 122-126.
- 3.28. Машин В.В., Яковлев А.И. Персидский залив в планах и политике Запада. – М.: Наука, 1985. – 240 б.
- 3.29. Мелихов И.А. Монархии Персидского залива: этап модернизации. – М.: Дело и сервис, 2000. – 544 б.
- 3.30. Мелкумян Е.С. ССАГПЗ в глобальных и региональных проблемах. – М.: ИВРАН, 1999. – 126 б.
- 3.31. Сариолгалам М. Современная система международных отношений, глобализация и исламский мир // Государство и религия в странах с мусульманским населением /под ред. Мунавварова З.И., Крумма Р.И. – Республиканский научно-просветительский фонд Имама ал-Бухари, Фонд им. Ф.Эберта. – Т.: Картография, 2004. – Б. 59-65.

- 3.32. Саттаров Т.С. Государство Кувейт в узбекско-арабских отношениях // Сб. научной конференции «Современное состояние и перспективы развития двухсторонних межгосударственных отношений Республики Узбекистан и Государства Кувейт». Т.: ТошДШИ нашриёти, 2001. – Б. 4-11.
- 3.33. Соловьев А.И. Политология: политическая теория, политические технологии. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова: «Аспект Пресс», 2004 г. – 558 с.
- 3.34. Хайдаров А.А. Проблемы ближневосточного урегулирования. – Т.: Узбекистон, 2001. – 120 б.
- 3.35. Хайдаров А.А., Тулаганова Н.У., Гафуров С.М. Основы политологии. – Т.: Узбекистон, 2003. – 245 б.
- 3.36. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: АСТ, 2003. – 603 б.
- 3.37. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Модель грядущего конфликта // Полис. – М.: Наука, 1994. – № 1. – Б. 33-48.
- 3.38. Хасянов А.Ж. Предисловие // Поляков К.И. Арабский Восток и Россия: проблема исламского фундаментализма. – М.: УРСС, 2003. – Б. 3-4.
- 3.39. Эндрейн Ч.Ф. Сравнительный анализ политических систем: эффективность осуществления политического курса и социальные преобразования. - М.: ИНФА-М, 2000. – 320 с.

Xorijiy tillardagi tadqiqot va maxsus adabiyotlar

- 3.40. Almond G., Bingham J., Powell G., Russel J., Dalton K. Comparative Politics Today: A Theoretical Framework (5th edition). – N.Y., 1996. – 224 p.
- 3.41. Almond G., Powell G.B., Strom K., Dulton R. – Comparative Politics Today. A World View. – 8th edition. –Longman, 2003. – 832 p.

- 3.42. Andrain Ch. F. Comparative Political Systems. Policy Performance and Social Change. – Comparative Politics Series. – Armonk, New York, London (England): M.E.Sharpe, 1994. – 243 p.
- 3.43. Andrain Ch. F. Political Change in the Third World. - Unwin Hyman, 1988. – 296 p.
- 3.44. Blondell Jan. Comparing Political Systems. - London, 1973. – 157 p.
- 3.45. Easton D. A Systems Analysis of Political Life. – Chicago: University of Chicago Press, 1979. – xv, 507 p.
- 3.46. Huntington S. The Clash of Civilizations and Remaking the World Order. - Simon & Schuster, New York, 1996. - 368 p.
- 3.47. International Law Definition from the Montevideo Convention of 1933 on the Rights and Duties of States. – Montevideo, 1933.
- 3.48. March J. The evolution of evolution. // Evolutionary Dynamics of Organizations. – Baum/Singh, 1994. - P. 39-49.
- 3.49. March J., Olsen J. Rediscovering Institutions: The Organizational Basis of Politics. - New York-London, 1989. – 227 p.
- 3.50. Milton-Edwards B. Contemporary Politics in the Middle East. – U.K.: Cambridge, 2000. – 256 p.
- 3.51. Olsen J.P. Garbage cans, new institutionalism and the study of politics. // American Political Science Review, 95 (1), 2001. - P. 191-198.
- 3.52. Olsen J.P. Organising European Institutions of Governance. // ARENA Working Paper 00/2. Oslo: ARENA. - Helen Wallace (ed.): Whose Europe? Interlocking Dimensions of Integration Sussex. - London: Macmillan, 2001. – 150 p.
- 3.53. Piscatori J.P. (ed.). Islam in the Political Process. – Cambridge University Press, 1983. – 240 p.
- 3.54. Pollack K. The Seven Deadly Sins of Failure in Iraq: a Retrospective Analysis of the Reconstruction // The Middle East Review of International Affairs. - December 2006. - Volume 10, No. 4. - Article 1/7.

- 3.55. Yom S.L. Civil Society and Democratization in the Arab World // The Middle East Review of International Affairs. - Volume 9, No. 4, Article 2 - December 2005.

4. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

- 4.56. Абдуллаев Н.А. Региональная политика Сирийской Арабской Республики в свете ближневосточного урегулирования. Автореф. дисс. канд. полит. наук. – Т., ТашГИВ, 2000. - 22 с.
- 4.57. Абдисатторов А.А. Форс кўрфази араб давлатлари ташқи сиёсатида “ислом омили”нинг сиёсий таҳлили. С.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. -Т., ТошДШИ, 2005. - 24 с.
- 4.58. Бабкин С.Э. Политический ислам в Северной Африке (70-е-90-е гг.): Дис... докт.полит.наук. – М.: МГУ, 2001. – 400 с.
- 4.59. Ёвқочев Ш.А. Политизация ислама и проблема религиозного экстремизма в современном Египте: Дис. ... канд. полит. наук. – Т.: ТашГИВ, 2000. – 196 с.
- 4.60. Джумаев Р.З. Проблемы формирования и укрепления политической системы Республики Узбекистан. Дисс. На соиск. Ученой степени доктора политических наук.-Т.,1997.
- 4.61. Гафуров С.М. Форс кўрфази араб давлатлари ва Ўзбекистон республикасининг минтақавий ва умумжаҳон хавфсизлигини таъминлашдаги мавқеи: Дис. ... сиёсий фанлар док. – Т.: ТошДШИ, 2002. – 290 б.
- 4.62. Каримова Г.И. Политико-экономический аспект интеграции Узбекистана в мировое сообщество. Дис. ... канд. полит. наук. – Т.: УМЭД, 1996.
- 4.63. Комарова С.Л. Оптимизация отношений субъектов политической деятельности. – Дисс. канд. психол. наук. - М.: Российская Академия государственной службы при Президенте РФ, 2002. – гл. 1, пар. 1.1.

- 4.64. Мунавваров З.И Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях 20 века: Автореф. дисс... док. полит. наук. – Ташкент, 1997. – 30 с.
- 4.65. Мавлянова С.Н. Многопартийность – несущая конструкция политического плюрализма в Арабской Республике Египет и Республике Узбекистан. Автореф. дисс. ...канд.пол.наук. –Т.: ТашГИВ, 2004. -27 с.
- 4.66. Мадаминова Д.И. Миср Араб Республикасининг Ўрта Ер денгизи минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсати. Автореф дисс... сиё фан номзод. – Т.: ТошДШИ, 2010. – 26 б.
- 4.67. Мелихов И.А. Арабские монархии Персидского залива на этапе модернизации (70 — 90-е годы). Автореф. дисс. ... д.и.н. – М.: ИВ РАН, 2000. - 42 с.
- 4.68. Муҳаммадсидиқов М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлашсиёсатининг хусусиятлари. С.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. -Т.: ТошДШИ, 2005. - 24 б.
- 4.69. Таха Фарғали Абдел Хаким. Процессы становления и развития современных египетско-узбекских отношений. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук.–Т.: ТашГИВ, 2002. -32 с.
- 4.70. Хадж Юсеф А. Международные и национальные механизмы защиты прав человека на Ближнем Востоке: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Российский университет Дружбы народов, 1999. – 19 с.
- 4.71. Хайдаров А.А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран: Автореферат дисс. ... док. полит. наук. – Ташкент, 1997. – 30 с.
- 4.72. Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТашГИВ, 2005. - 23 с.

5. Gazeta va jurnal maqolalari

- 5.73. Барковская Е. Арабский Восток: подходы к проблеме «исламского терроризма» // Азия и Африка сегодня. – М.: ИВ РАН, 2004. – № 8. – Б. 11-13.
- 5.74. Жумаев Р.З. Сиёсий партиялар демократия йўлида. // Жамият ва бошқарув. – Т., 1999 – 3-4-сонлар – 0,5 б.т.;
- 5.75. Жумаев Р.З. Демократизация как фактор укрепления гражданского общества. // Демократия и право. – Т., 1997. – С. 24-26.,
- 5.76. 4.128. Шевченко В. Мир против террора // Азия и Африка сегодня. – ИВ РАН. - М.: Наука, 2004. – № 2. – Б. 36-40.
- 5.77. Гафуров С.М. Государства Персидского Залива: обеспечение экономической безопасности // Маяк Востока. – Т.: ТашГИВ. – 2001. – № 1-2. – Б. 30-32.

6. Internet axborot resurslari

- 6.78. [Косач Г.Г. Мирный процесс на Ближнем Востоке: сирийское направление](#) // Востоковедный сборник. – М.: ИИИБВ, 2001, - Вып. 2. – С. 245.
- 6.79. [Поляков К.И., Хасянов А.Ж. Проблема стабильности Сирии в XXI веке](#) // Востоковедный сборник. – М.: ИИИБВ, 2000, - Вып. 9. – С.113.
- 6.80. Георгий Мирский. Большой Ближний Восток — самый конфликтный регион мира// <http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm>
- 6.81. [Hélène Mulholland](#) and [Mark Tran](#) . Blair accepts role of Middle East envoy // <http://www.guardian.co.uk/uk/2007/jun/27/israel.tonyblair> - Wednesday 27 June 2007
- 6.82. Гаджиев А.Г. "Пути к Ближневосточной интеграции: развитие турецко-сирийских отношений"<http://www.iimes.ru/rus/stat/2009/29-12-09.htm>
- 6.83. Khaled Yacoub Oweis . Britain urges Syria to move on Middle East peace // <http://www.alertnet.org/thenews/newsdesk/LI329486.htm> - 18 Nov. 2008

- 6.84. [Манукян С. "Исламский фундаментализм в Сирии \(30-60-е годы XX в.\)"](#)
// Востоковедный сборник. – М.: ИИИБВ, 2002, - Вып. 4. – С. 234.
- 6.85. [Гаджиев А.Г. ХАМАС: ситуация внутри движения и отношения с Иорданией. – М.: ИИБВ, 15 май 2012. – С.](#)
<http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/15-05-12.htm>